

**UMUMIY  
PEDAGOGIKA**

24.00.4273  
U-52  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI


N. Ataeva  
F. Rasulov  
S. Hasanov

# UMUMIY PEDAGOGIKA

(Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari)

O'quv qo'llanma

Toshkent – 2011



N.Ataeva, F.Rasulova, S.Hasanov. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari). O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD MOLIYA", 2011, \_\_\_ bet.

Mazkur o'quv qo'llanma pedagogika fanining umumiy va metodologik asoslari, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti asoslari hamda pedagogik mahorat va zamonaviy pedagogik texnologiya asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Har bir mavzu matnidan so'ng takrorlash va munozara yuritish uchun savollar, topshiriqlar, testlar, intellektual treninglar berilgan. Bu esa o'quv mashg'uloti davomida talabning olgan bilimini mustahkamlashga zamin yaratadi, mustaqil fikrlashga, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni jonlantirishga, tahsil oluvchining faoliyatini oshirishga yordam beradi va muammoli o'qitish bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi.

O'quv qo'llanma iqtisodiy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat yo'nalishlari talabalari, amaliyotchi pedagoglar, shuningdek, magistrlar hamda ta'lim-tarbiya nazariyasi bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma Toshkent Moliya institutining ilmiy-uslubiy kengashi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (20\_\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-sonli bayonnom).

**Mas'ul muharrir: J.G'.Yo'ldoshev** – pedagogika fanlari  
doktori, professor.

**Taqrizchilar:** **H.Omonov** – pedagogika fanlari doktori, professor.  
**M.Hoshimova** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent –  
TDIU "Pedagogika va psixologiya"  
kafedrası mudiri.

## Kirish

XXI asrga kelib ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligini tobora namoyon qilmoqda. Shuning uchun insonparvarlik ma'naviy barkamollik, ezgulik, tashabbuskorlik, dunyoviy va diniy uyg'unlik, milliy istiqlol g'oyasi bozor iqtisodiyoti asosidagi insonparvar demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida qabul qilindi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov: "Mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda

Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bo'lmog'i darkor",<sup>1</sup> – ekanligini alohida qayd qilib o'tgan.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini amalga oshirish borasida hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni talab darajasida bajarish jadal rivojlantirishga katta ahamiyat berilishi lozim bo'ladi. Bu jarayon mamlakatimizning jahon bozorlarida o'ziga munosib o'ringa ega bo'lishi uchun ilm-fan yutuqlaridan va innovatsion texnologiyalardan keng ko'lamda foydalana oladigan malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish vazifalarini hal etish bilan uzviy bog'liqdir. Bu borada Prezident I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asarida ta'kidlaganidek: **"O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu – mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi"**<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: "Sharq", 1999, 95-bet.

<sup>2</sup> I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T.: «Sharq», 1998, 67-bet.

Yuqorida tilga olingan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, ilmiy-texnikaviy yangiliklarni va innovatsion texnologiyalarni tahlil qilishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimizni avaylab bilim va ko'nikmalarni yosh avlodga taqdim etishda, yangicha mantiqiy fikdash malakasini shakllantirishda **pedagogikaning** ahamiyati salmoqlidir.

Shunday ekan, **iqtisodiy oliy o'quv yurtlarida pedagogika fanining o'qitilishi talabalarda, ya'ni bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarda quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni taqazo etadi:**

– talabalar pedagogika nazariyasi asoslarini o'zlashtirib borish jarayonida o'z ixtisoslik fanlari bo'yicha bilimlarni chuqur va ongli egallashi, shuningdek, intellektual-axloqiy kamol topishini rivojlantirish;

– jahon va Respublikamiz xalqlarining erishgan boy tarixiy, ma'naviy, madaniy, axloqiy kadriyatlarini bilan tanishtirib, talabalarda milliy g'oya, milliy mafkura, vatanparvarlik kabi oliy hislatlarni kamol toptirish;

– ixtisoslik fanlari sifatli va mazmunli o'qitilishi uchun talabalarda ta'lim usullari to'g'risida bilimlar va ulardan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish, zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirish;

– talabalarda bo'lajak mutaxassisliklari haqida to'liq tassavvurni vujudga keltirish va professionallikni rivojlantirib borish maqsadida, o'qish jarayonining amaliyot bilan integratsiyalashuvini amalga oshirish va h.k.

Pedagogika nazariyasiga suyangan holda iqtisodiy ta'lim jarayonining amalga oshirilishi, talabalarni iqtisodiy ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi, iqtisodiy bilim qobiliyatlarini shakllantiradi. Ularning iqtisodiy dunyoqarashlarini tarkib toptiradi. Iqtisodiy tarbiya esa, talabalarda axloqiy, estetik, aqliy fazilatlarini shakllantirish bilan birga ularda tejamkorlik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tavakkalchilik kabi oliy sifatlarini rivojlantiradi. Tarbiya vositasida shaxsda insonlarga xos bo'lgan ko'nikmalar shakllanadi, uning hali o'rganilmagan tomonlari, qiziqishlari aniqlanib rivojlantiriladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtisodiy ta'lim tizimida bo'lajak iqtisodchi mutaxassisliklarida pedagogika nazariyasining o'qitilishi talabalarda o'z fanlariga bo'lgan qiziqishni yanada orttiradi. Ularning fanlarni chuqur o'zlashtirish, o'tilayotgan mavzularning mazmun

mohiyatini ongli tushunishga xizmat qiladi. Talabalar pedagogika nazariyasini o'zlashtirish davomida o'quv jarayoniga umuman boshqacha mas'uliyat bilan yondashmoqdalar, talaba va o'qituvchi munosabatlarida o'zgarishlar ro'y berdi. Hozir o'qituvchilarning talabalarga o'z ustunligini namoyish qilish va shu asosda talabalar ustidan o'z hukmini o'tkazish illatlariga chek qo'yilmoqda. Talabalar o'z haq-huquqlari, o'qituvchi-talaba munosabatidagi o'z o'rinlarini anglab bormoqdalar. Muhimi shuki, iqtisodiy fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari avvalgi yillarga nisbatan sezilarli darajada ko'tarildi. O'qish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini keng qo'llash quyidagi natijalarni beradi:

– o'qitishning ilmiyligi oshadi. Bilim berishda ilmiylikka erishish uchun avvalo o'qitish jarayonida fan-texnikaning so'nggi yutuq va kashfiyotlaridan foydalanish, o'quv fanlari ilm-fan asosida yaratilishi, talabalarni ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishi lozim. Bu talabalarda turli iqtisodiy hodisalarga ob'ektiv tarzda yondashish ko'nikmasini shakllantiradi. Talaba ilmiy bilimlarni o'zlashtirar ekan, uning fikrlash qobiliyati o'sib, rivojlanib boradi;

– talabalarda ijodkorlikni shakllantirish. Ijodkorlik deganda biz qandaydir bir buyum yoki badiiy asarning yaratilishi emas, balki har bir vazifaga o'z nuqtai nazari bo'yicha yondashishi, bir muammo ustida mustaqil fikr yurita olishi, o'qish jarayonida orttirgan barcha bilimlarini hayotda kechayotgan hodisalarga bog'lay olishi va ularni tahlil qila olishi, o'rganilayotgan soha bo'yicha o'zining yangi qarashlarini ifodalashini tushunishimiz lozim. Talabalarda, ayniqsa, o'z fikrlarini yozma tarzda ifodalay olish qobiliyatini rivojlantirishga ahamiyat qaratishi zarur. Chunki, shu orqali talabalar o'z bilimlarini to'laroq, mazmunliroq ifodalaydilar;

– o'qish jarayonida talabalarda mustaqillikni tarbiyalash. Talabalar darsda o'tilgan mavzu bilan cheklanib qolmasliklari zarur. Ular mavzu yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar izlashlari, ularni o'zlashtirishlari, o'tilgan mavzu amaliyotda qanday natija berishini ham sinab qo'rishlari lozim. Masalan, narx o'zgarishining aholini sotib olish qobiliyatiga ta'siri. Hozirgi sharoitda talabalar har tomonlama bozordagi vaziyatdan xabardor bo'lishlari, ma'lumotlarni tez qayta ishlay olishlari lozim. Bular talabalarning bilimlari keng qamrovli bo'lishi, ularni chuqur anglashlariga yordam beradi, shuningdek, talaba mustaqil fikr yuritish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Yuqoridagi qobiliyatlarga ega bo'lgan talabalar nafaqat o'z mutaxassislik fanlari, balki boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham muvaffaqiyatga erishadilar.

Talabalar nazariy bilimlarni o'zlashtirar ekanlar, uning muhim belgi va qoidalarini ajrata bilishlari kerak. Ularga bilimlarning mohiyatini ocha olish ko'nikmasini o'rgatish lozim, chunki o'tilgan mavzular, qoidalar va ta'riflar shundagina esda qoladi va yaxshi o'zlashtiriladi. O'qituvchi talabalarda bu ko'nikmalarni shakllantirish va yuzaga chiqarish maqsadida o'qitish jarayonida keng qo'llaniladigan ta'limning muammoli texnologiya usullaridan foydalanishi mumkin. Bunda o'qituvchi muammoli vaziyatni yaratadi, talabalarda muammoni echishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, ular oldiga izchil savollar qo'yadi, ayniqsa iqtisodiy bilimlarni berishda bu usul qo'l keladi. Vaziyatni yaratishda va uni echishda talabalarda xotirani mustahkamlash va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida turli misollar, chizma, grafik va jadvallardan foydalanish mumkin.

O'qitishda nazariy bilimlar qanchalik qat'iy bayon etilsa, talabaning fikr yuritishi ham shunchalik aniq va to'g'ri bo'ladi, o'quv materiallarini to'la, ongli o'zlashtirish darajasi oshadi. Talabalar o'qish jarayonida faqat nazariy bilimlarnigina o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasliklari zarur. Ular nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lab olib borishlari lozim. Ta'limdagi yutuqlar nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslangandir. Talabalar o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda tadbiq eta olsalar, amaliyotda ulardan foydalana olsalar, shundagina ular o'z kasbining chinakam mutaxassislari bo'la oladilar. Talabalar amaliyotdagi hodisalarni kuzatish va o'rganish orqali qo'shimcha bilimlarga ham ega bo'lib boradilar. Ortirilgan bilimlarini nazariy bilimlar bilan uyg'unlashtirib, yagona umumlashgan xulosaga keladilar. Natijada, ularda voqea va hodisalar mohiyatini anglash ko'nikmasi shakllanadi.<sup>1</sup>

Pedagogika nazariyasining bugungi kundagi asosiy vazifalaridan yana biri talaba-yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkura haqida tassavurlarni shakllantirishdir. Biz insonparvar demokratik huquqiy davlat asosida erkin va farovon fuqarolik jamiyatini barpo qilar ekanmiz, avvalo shuni anglashimiz kerakki, bu maqsadlarga talaba-yoshlarimiz faqat o'zligini anglash orqali erisha olishi tabiiy. Zero, talaba-

---

<sup>1</sup> A.Ayubjonov. Iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda pedagogika fanining o'rni. //Iqtisodiyot va ta'lim, 2002 yil 3-son, 126-129-betlar.

yoshlarimiz milliy g'oya va milliy mafkura haqida aniq va chuqur tushunchaga ega bo'lsagina, o'zligini anglashi haqiqatdir.

Pedagogika nazariyasi asoslarini o'rganish davomida talaba-yoshlar milliy g'oya, milliy mafkura, milliy tuyg'u kabi tushunchalarning mazmun mohiyatini anglaydilar, vatanparvarlik va insonparvarlik hissi bilan to'yinib, turli yot g'oya va mafkuralarga qarshi o'zlarida immunitetni shakllantiradilar. Ana shundan kelib chiqib ham aytishimiz mumkinki, oliy ma'lumotli iqtisodchi mutaxassislar tayyorlaydigan barcha oliy o'quv yurtlarida pedagogika va psixologiya fanining o'qitilishi hozirgi paytda, zamon talabi va ehtiyojiga aylandi. Chunki, bizning maqsadimiz yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazishgina emas, balki kamol insonlarni va zamonaviy yuksak malakali mutaxassis kadrlarni tarbiyalashdir.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri-yuksak malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan holda biznes va boshqaruvda jamoaning mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning, shuningdek, tadbirkorlikning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Bu o'rinda inson shaxs fe'l-atvori, xarakteri va ruhiyati bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganuvchi psixologiya fanining o'rni va roli benihoyat kattadir. Chunki shaxsgina o'z qobiliyati, iqtidori, layoqati, tafakkuri, diqqati, e'tiqodi, xarakteri, temperamenti, muomala va muloqoti xususiyatlarini bilib, uni to'g'ri yo'naltira olsa, o'zi va o'zgalar ruhiyotiga befarq bo'lmaslikka, o'z layoqatini o'stirishning elementar vositalaridan boxabar bo'lishga yordam beradi. Buning uchun har bir shaxs pedagogika va psixologiya fanlari asoslaridan xabardor bo'lishi kerak, albatta. Shundagina o'z-o'zini va o'zgalarni anglashi, turli vaziyatlar va guruhlarda muomala qilishi, erkin va mustaqil fikrlash qonuniyatlarini bilishi orqali biznes va boshqaruvda katta muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin.

**Mualliflar mazkur o'quv qo'llanmasining tuzilishi, mazmuni, muammolarning bayon qilinishi tartibi va uslubi bo'yicha bildirilgan har qanday taklif-mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladilar va keyingi o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda hisobga oladilar.**



## I BO'LIM

### Pedagogika fanining umumiy va metodologik asoslari

#### 1. Pedagogikani fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi

Insoniyat tarixiga naar tashlar ekanmiz, har bir bolaning onadan dunyoga kelishi, faqat tug'ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki u ma'lum layoqat qobiliyat kurtaklari bilan tug'iladi. Lekin u **inson, shaxs** sifatida oilada ota-onalar; jamiyatda esa tarbiyachi-ustozlar va turli jamoalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati orqali shakllanadi. Jamiyat rivojlangan sari etuk, barkamol shaxslarni tarbiyalab etishtirish ehtiyoji ham ortib borgan hamda o'zgarib, yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan. Insoniyat jamiyatning turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya muassasalari yaratish, yosh avlodlarni o'qitish va tarbiyalash sohasidagi to'plangan tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tatbiq qilish jarayonida jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida pedagogika fani va pedagogik ta'lim vujudga keldi.

Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, deb qarash lozim, chunki ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni va shaxsning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Pedagogika dastlab yoshlarga ta'lim va tarbiya berish haqidagi ta'limot sifatida vujudga kelgan bo'lsa, sekin-asta bu sohadagi izlanishlar doirasi kengaya bordi. Hozirgi kunda pedagogika barkamol shaxsni shakllantirish qonuniyatlari to'g'risidagi fan sifatida ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, ta'lim davlat standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, uni tashkil etish shakllari va qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi. Yaqin vaqtgacha falsafaning bir tarmog'i hisoblangan pedagogikaning ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy asoslari yaratilib, pedagogika fanlar majmui paydo bo'ldi. Bizningcha, pedagogika turkumiga kiruvchi fanlar majmuini 4 yirik guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Barcha pedagogikaga oid fanlarga asos bo'lgan **pedagogika tarixi va nazariyasi** guruhiga pedagogika tarixi, didaktika va umumiy pedagogika kiradi.

**Umumiy pedagogika guruhiga** – uzluksiz ta'lim jarayonining har bir bosqichidagi pedagogik jarayonning o'ziga xosligini asoslab beruvchi – **oila pedagogikasi, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktab pedagogikasi, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim**

pedagogikasi va kattalar pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, harbiy pedagogika, menejment pedagogikasi, iqtisodiy pedagogikasi, tibbiyot pedagogikasi va boshqa tarmoqlarga bo'lingan. Undan tashqari, sezgi organlarining biron bir turi ishlamaydigan kishilarga bilim berishning o'ziga xos tomonlarini o'rganuvchi maxsus pedagogika guruhiga – **surdopedagogika, tiflopedagogika va olifrenopedagogikalar** kiradi. Butun pedagogik jarayonni amalga oshirish yo'l-yo'ruqlarini ko'rsatib beruvchi **uslubiyat (metodika)ni ham, o'z navbatida – maktabgacha ta'lim uslubiyati, umumta'lim uslubiyati, hunar ta'limi uslubiyati, oliy ta'lim uslubiyati va malaka oshirish uslubiyati** va boshqa tarmoqlardan iborat. Bu pedagogik fanlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri-birini taqazo etadi, biri- birini to'ldiradilar (1-shakl).

### *1-shakl.* Pedagogik fanlar majmui.

Pedagogika tarixi va nazariyasi asosini tashkil qiluvchi birinchi guruhning uchta pedagogik fan tarmoqlariga umumiy tasnif beradigan bo'lsak, bularning uchalasi boshqa pedagogik fan tarmoqlariga asos bo'lib, o'zaro bog'liqdirlar.

Didaktika va umumiy pedagogikada ishlab chiqilgan asosiy printsiplar, qoidalar va maxsus tushunchalar maktab hamda maxsus pedagogika guruhlaridagi pedagogik fan tarmoqlari, didaktika printsiplari va umumiy pedagogikadagi qonun-qoidalarni, ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xosligidan kelib chiqib o'zgartiradilar va o'z sohasiga moslashtiradilar.

Uslubiyat (metodika) ham maxsus va uzluksiz ta'lim bosqichlaridagi pedagogikalar kabi ta'limning o'ziga xos turi va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda didaktika printsiplari va umumiy pedagogikadagi qonun-qoidalarni o'z sohasiga moslashtiradi va soha uslubiyatini yaratadi. Pedagogika fanlari tizimining muhim tarmog'i sifatida aniq fanlarni o'qitish va o'rganishning qonuniyatlarini o'rganuvchi uslubiyot (metodika) fanining ham xizmatlari beqiyos kattadir. Hozirgi kunda o'quv yurtlarida tarix o'qitish, matematika o'qitish, til o'qitish, adabiyot o'qitish, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (uslubiyati) fanlari o'qitilmoqda.

O'zbekiston mustaqil bo'lgandan so'ng mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida, pedagogika fanining umumiy va metodologik asoslarida,

mazmunida ta'lim-tarbiya nazariyasida, ta'limning tashkiliy shakllarida, shaxsning barakamollik darajasi va sifatlarini aniqlashda katta islohiy o'zgarishlar bo'ldi. Bu islohiy o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni tatbiqida pedagogika fanining umumiy va metodologik asoslari kengayishiga zamin yaratdi.

Pedagogika fanining ob'ekti faqat ta'lim-tarbiya jarayonini nazariy va metodologik hamda amaliy asosini ta'minlovchi fan emas, balki barkamol inson shakllanishi, rivojlanishini ta'minlovchi keng sohalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dagi milliy ta'lim modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh ob'ekti va sub'ekti sifatida qaraladi. **Ma'lumki, pedagogika fani ta'lim va tarbiyaning inson rivoji, shaxs kamoli va mutaxassis shakllanishida ta'lim tizimini o'z ichiga olmaydigan etnik, antropologik, genetik, tarixiylik, mustaqillik, tabiiy-ekologik, instinktiv, ruhiy-hissiy bilish, rivojlanish, komillik omillariga ham suyanadi. Bundan tashqari pedagogika fani oldiga yangicha fikrlash, yangicha tafakkur, milliy malkuraning keng qamrovli sifatlarini shakllantirish vazifalari qo'yildi.**

Hozirgi kunda pedagogika fani ta'lim va tarbiyada hayot jarayonining hamma sohalarni, jabhalarini qamrab olmasa ham, u o'zining barkamol inson ta'lim-tarbiyasida juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan asosiy ijtimoiy fan mavqeini egallay olmagan bo'lardi. Shuning uchun ham "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"(1997 yil)da ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi va dolzarb vazifasi qilib belgilandi.

Pedagogika fanida bu ustuvor yo'nalish va ulug'vor vazifa "milliy ta'lim modeli"dan kelib chiqib, xar bir mavzu, tushunchalarning ta'limiy, tarbiyaviy rivojlantiruvchi funksiyalarini olishning metodologik, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti, ta'lim tizimini boshqarishga doir bo'limlarida asoslab beriladi.


Shunday qilib, pedagogika mustaqil fan sifatida shakllanib, takomillashib borib, ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim-tarbiya nazariyasining mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqida bilim, o'quv, amaliy ko'nikma va malakalar, ma'lumot beradigan fanga aylandi. Demak, boshqa fanlar kabi pedagogika ham fan sifatida paydo bo'lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo'ldi va jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti bilan uzviy rivojlanib bormoqda.

Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, deb qarash lozim, chunki ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni rivojlanishini, barkamol insonni tarbiyalashni tasavvur qilish qiyin, albatta.

## **2. PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI**

Ma'lumki, har bir mustaqil fan o'zining predmeti (mavzusi) va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida mustaqil fan sifatida rivojlanib borayotgan pedagogika fani ham o'z predmeti (mavzusi)ga ega.

**Pedagogika fanining predmeti o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, metodlari, vositalari bilan yoshlarni, bo'lajak mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun uning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi (2-shakl).**



**PEDAGOGIKA FANINI O'RGATISHDA ALOHIDA AHAMIYAT BERISH LOZIM BO'LGAN JIHATLAR**

Dars (mashg'ulotlar)ni olib borishda talabalar yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini hisobga olish

Ta'lim-tarbiyaning ilg'or, ta'sirchan vositalaridan, zamonaviy o'qitish texnologiyasi imkoniyalaridan keng foydalanish

Ta'lim jarayonida tazyiq o'tkazmasdan ma'rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin ko'nikmalariga e'tibor qaratish

Ayrim tushunchalarni haddan ziyod soddalashtirishga, ta'limning eskicha metodlarini qo'llash natijasida fanning qadsizlanishiga yo'l quymaslik

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalarini insonparvarlik mohiyatini ko'rsatish asosida mustaqillik eng oliy qadriyat, uni asrab avaylash esa muqaddas burch ekanini o'quvchi-talabalarning qalbi va ongiga singdirish

Mavzuning tushuncha va tamojillarini sharhlashda hayotiy misollar, bugungi dunyoda ro'y berayotgan maqsadlar tahlilidan, matbuot materiallaridan keng foydalanish

### **Pedagogika fanining maqsadi:**

- Respublikamizda barkamol avlodni voyaga etkazishning bir butun xolatidagi muammolarini hal qilish;
- ta’lim-tarbiya samaradorligini tinmay oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondashish;
- umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e’tiborga olib, ta’lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;
- pedagogika – tarbiyashunoslik qoida – qonunlarini ilg’or pedagogik tajribalar asosida boyitib borish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo’llash tadbirlarini belgilash;
- uzluksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal qilish;
- “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish va h.k.

### **Pedagogika fanining vazifalari:**

- Sharq va G’arbda xalq yaratgan og’zaki ijodiyoti, ya’ni xalq pedagogikasi, mutafakkirlar, ma’rifatparvarlar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg’or g’oyalarini o’rganib, tahlil qilib, barkamol shaxsni tarbiyalash jarayoniga tatbiq etish;
- komil insonni tarkib toptirishning qonuniyatlari va zaruriy sifatlarini aniqlash;
- pedagogikadagi ta’lim – tarbiya nazariyasini hozirgi va xususiy metodikasi bilan uzviylik muammolarini ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga amal qilish;
- ta’lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va usullarini ta’lim muassasasi amaliy hayoti bilan bog’lab, bo’lajak iqtisodchi o’qituvchilar va mutaxassislariga o’rgatish;
- ta’lim muassasasini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o’rganib bo’lajak o’qituvchilar va mutaxassislarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish va h.k.


Pedagogika fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyil, metod va usullari, vositalari umuman, har bir inson uchun zarur bo’lgan tarbiyaviy ta’sirlar yangicha asosga ega bo’lishi kerak. Pedagogika fanining mazmuni, maqsad va vazifalarining yangilanish va rivojlantirish yo’li quyidagi to’rtta asosiy negizga asoslanadi:

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhini singdirish;
- xalqimizning milliy urf-odatlarini, an’analarini, ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

- shaxsning o'z qobiliyat va imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlik va insonparvarlik.

Shu asosdan kelib chiqib fikr yuritadigan bo'lsak, pedagogika fanining maqsad va vazifalari ancha kengayganligini ko'rsatadi.

4-shakl





### 3. MILLIY ISTIQLOL G'OYASI VA MILLIY MAFKURANING PEDAGOGIK ASOSLARI

“Istiqlol mafkurasi ko'pmillatli O'zbekiston xalqining shu g'oya – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu – intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or – nomusi, ishonch – e'tiqodini ifodalaydigan jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir”.<sup>1</sup>

Milliy istiqlol g'oyasining tarixiy ildizlari – xalqimizning moziy sinovlaridan o'tib kelayotgan boy madaniy va ma'naviy merosi, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analari, qo'shiqlari, bayram va marosimlaridagi ozodlik, erkinlik uchun kurash ruhi, otabobolarimizning mustaqillik yo'lida ko'rsatgan jasorati, bunyodkorlik ishlari hamda ularni amalga oshirishda ma'naviy ruh bergan tafakkur tarzida namoyon bo'ladi. U asrlar mobaynida yillar sinoviga dosh berib, sayqallanib, takomillashib kelgan. Bu tafakkurning markazida insonning ulug'ligi va mo'tabarligi g'oyasi yotadi. Chunki mamlakatning hayoti, farovonligi mehnatkash insonlarning xususan, yoshlarning faoliyatiga bog'liq.

5-shakl



<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000, 6 –bet.

Milliy istiqlol g'oyasining tarixiylik tamoyili xalqimiz ruhini, dahosini aks ettiruvchi o'lmas qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, buyuk ajdodimiz, sohibqiron Amir Temurning sog'lom ma'naviyat mahsuli bo'lgan "Kuch - adolatdadir" degan shiori milliy g'oyaning tarkibiy qismiga aylanib ketgan. U mamlakat birligini ta'minlash, markazlashgan davlat barpo etishadi, ayniqsa, uni odillik bilan boshqarishda ma'naviy - mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilgan.

Milliy istiqlol g'oyasi chuqur pedagogik asoslariga ega. Bunda bir tomondan, jahon pedagogikasidagi umuminsoniy qadriyatlar, ikkinchidan, Sharq pedagogikasi va madaniyati, uchinchidan esa, yurtimizda o'tgan qomusiy allomalarning pedagogik merosi o'z o'rniga ega. Ana shu asosda yaratilgan g'oya va mafkura hozirgi zamonda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog'i, haqiqiy iymonga aylanmog'i lozim.

Mustasar qilib aytganda, milliy mafkuramizning pedagogik asoslari deganda ajdodlarimizning pedagogik tafakkur tarzi, amaliy faoliyati, bunyodkorlik ishlari, jahon xalqlari pedagogikasi, urf-odatlari, qadriyatlari, hozirgi zamondagi pedagogik qarashlar va ta'limotlar, O'zbekiston Respublikasi Prezident Islom Karimov asarlaridagi fikr va hulosalar tushuniladi.

Istiqlol mafkurasini - har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezon hamdir.


Milliy istiqlol mafkurasining yurtimizda yashovchi har bir fuqaro uchun qadrliligi shundaki, uning mohiyatida umuminsoniy tamoyillar yotadi.

Milliy istiqlol mafkurasini, quyidagi pedagogik mohiyatga ega:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Binobarin, u qonuniylikka, umume'tirof etilgan talablarga umuminsoniy tamoyillarga zid kelmaydi;

- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi. Bu milliy mafkuramizning tarixiy va ma'naviy asosga ega ekanidan dalolat beradi;

- adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi. Bilamizki bu, ulug' g'oyalar istiqlol sari intilgan har bir xalqning ezgu maqsad, ishonch va e'tiqodi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi;



- Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu tamoyil uning jamiyat a'zolarining aniq maqsad sari yo'naltiruvchi, uyushtiruvchi mohiyatga ega ekanini ifodalaydi;

- jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Bu olijanob maqsadlarga erishish fuqarolarning hamjihatligiga, o'zimizning burchimizni qay darajada anglashimizga, ertangi kunga bo'lgan ishonchimizga ko'p jihatdan bog'liqdir;

- millati va dinidan qat'i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona-Vatanga muxabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi. Bu qoida Vatanning muqaddasligini har bir fuqaro ongiga singdirishga xizmat qiladi;

- jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi. Bu milliy istiqloq g'oyasining fikrlar rang-barangligi, e'tiqod erkinligi kabi demokratik tamoyillariga amal qilgan holda hayotga joriy etilishidan dalolat beradi.


6-shakl



Milliy istiqlol mafkurasining asosiy umumbashariy tamoyillari esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta'minlashda yordam berish;
- qonunning ustuvorligi, demokratiya va o'z-o'zini boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallayotganiga asoslanganlik;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga tayanish;
- xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligiga va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanganligi, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida aholining ijtimoiy himoyalanganligi, jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiyligi tamoyillari xizmat qiladi.

7-shakl




Istiqlol mafkurasi quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi:

- qonun ustuvorligi;
- inson haq – huquqlari va hurfikrlilik;
- turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- diniy bag'rikenglik;
- dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;
- o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'zlashtirish va hokazo.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biri – har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat. **Komil inson deganda biz eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, madaniyatli, ma'naviyatli shaxsni tushunamiz. Ongli, bilimli odam har narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'rib o'z o'y-fikrini, xulosasini mantiq asosida quradi.**

8-shakl



Tarixga nazar tashlasak, komil inson xarakteri va xulq atvori qanday degan masala bilan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Nodira, Anbar otin, Furqat, Komil Xorazmiy, Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlar shugʻullanib, oʻz asrlarida muhim fikrlarni bayon etganlar. Nihoyat, buyuk mutafakkir – pedagoglarimiz talqin etgan **Komil inson** xarakteri, ezgu va odil xislatlarni sanab sanogʻicha etish qiyin. Ammo uni uch xislatga jam qilganlar: **“Saxo – bor narsani hech kimdan qizgʻanmaslik; Safo – qalbni kibru – havo, gina-qudrat, qasd-gʻazabdan poklash; Vafu–hamma vaqt xalq xizmatida boʻlish”**.

Shunday qilib, **Saxovatilik** faqat moddiy yordam bilan emas, balki oʻzgacha ilm ato etish bilan ham boʻladi. **Safolik** (poklik) esa birovning qalbini murga toʻldirish. **Vafolik** oʻzganing baxtidan xushnud boʻlishidir.

Demak, **Komil inson** oʻz xarakteri, axloqi va odobi bilan oʻzgani tarbiyalaydi, oʻziga baxt ato etadi. Uning xarakteri, odob-axloqi jamiyatda tipikdir, xarakter tipiklashmasa komillik boʻlmaydi.

Zero, **Komil Insonda** ezgu va odil xarakterni shakllantirish uchun qalbni tarbiyalamoq lozim. Mutafakkirlarning fikricha, kishilarda besh xil qalb bor: **“Oʻlik qalb – hech narsaga intilmaydigan qalb; xasta qalb – yangilikka havasi bor, lekin intilmaydigan qalb; xasta qalb – yangilikka havasi bor, lekin yordamga muhtoj qalb; gʻofil qalb – hikmat (onglilik) nuridan bebahra qalb; uygʻoq qalb – nuri bor, biroq tarbiyaga muxtoj qalb; tirik qalb – oʻz baxtini topgan va oʻzgaga baxt beruvchi qalb”**.<sup>1</sup> Komil inson ana shunday tirik qalbga ega boʻlish bilan ulugʻ xarakterga erishadi. Demak, biz butun milliy istiqbol gʻoyasi va milliy mafkurani tarbiya jarayonida qoʻllashda har bir yosh avlodning qalbi, ongi va shuuridagi tuygʻularini shakllantirishga, qalbi va ongini yot unsurlardan asrashga, nihoyat, undagi ezgu tuygʻularni yanada takomillashtirishga alohida eʼtibor berishimiz kerak.

Darhaqiqat, **Komil inson** gʻoyasi – ham milliy, ham maʼnaviy, ham unumbashariy mohiyatga ega boʻlgan, odamzotga xos eng yuksak maʼnaviy va jismoniy mukamallikni oʻzida mujassam etgan, uni

<sup>1</sup> I. Doʻstjonov, M. Mirhamidov, S.Hasanov. Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari. Oʻquv qoʻllanma. –T.: “IQTISOD - MOLIYA”, 2006, 199-bet

hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir. Bu g'oya – nafaqat alohida shaxslarni, balki butun – butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari etaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan.

**Komillikni** orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga etkazish haqida qayg'urmagan xalqning kelajagi yo'q.

**Insonning insonligi** birinchi navbatda, uning ma'naviy – axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma'naviy – axloqiy tarbiya tushunchasi keng qamrovlidir. Ma'naviy – axloqiy barkamol inson ota – onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas, butun oila a'zolari, qo'ni – qo'shnilari, mahalla – ko'yi, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalqi farovonligi haqida qayg'uradi; tevarak atrofini o'rab olgan insonlar unga kerak bo'lgani singari, o'zi ham ularga kerakli kishi bo'lishga intiladi; odob – axloqi, fe'l – atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblaydi; ota – bobolaridan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlaydi; milliy qadriyatlarni e'zozlaydi va ularga sodiq bo'lib qoladi; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari barqaror bo'ladi; o'zaro muomala – munosabatda o'rnak bo'lishga moyil bo'ladi; bironing og'irini engil qilishni odat qiladi; umumxalq ma'qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni xurmat qiladi, unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatadi; Vatanni himoya qilish, harbiy vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashaydi; diyonat va adolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qiladi, va'daga vafoli bo'lishni o'ziga kasb qilib oladi va h. k.

**Madaniyat barkamol insonni shakllantirish vositasidir. Madaniyatli komil inson g'oyasi ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni hammisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.**



Demak, **Komil inson** shaxsini shakllantirish jarayonida ta'lim-tarbiya borasidagi barcha imkoniyatlar va qadriyatlardan to'liq foydalanmoq kerak. Har qanday tarbiya umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'langandagina yaxshi samara beradi. Har holda jahondagi turli davlatlarda, mamlakatlarda amalga oshirilgan tarbiya metodlari, ishlari, mazmuni, mohiyati, undan ko'zlangan mahsulotlar bir – biri bilan uzviy bog'liqdir. Shunday qilib, **Komil inson** g'oyasining maqsadi:

**Birinchidan**, inson, uning kamolotligi, erkin butun ta'lim – tarbiya tizimining markazida turmog'i lozim. Inson inson uchun degan fikr oliy qadriyat, oliy maqsad bo'lib qolishi buning uchun eng avvalo yoshlarning, ularga ta'lim – tarbiya berayotgan barcha o'qituvchi-



tarbiyachilarning Alisher Navoiy aytganlaridek, “o‘zining dili pok bo‘lmog‘i lozim”.


**Ikkinchidan,** O‘zbekiston jahonga yuz tutdi, jahon ham O‘zbekistonga o‘z bag‘rini ochmoqda. Binobarin, endigi mutaxassis kadrlar jahon xalqlari bilan doimiy muloqotda bo‘ladilar. O‘zbekistonga, uning xalqiga har bir kadrning shaxsiy sifatlariga qarab baho beradilar, munosabat belgilaydilar. Bunday sharoitda bo‘lajak mutaxassis o‘z kasbining qay darajada ustasi ekanligi, ayni chog‘da O‘zbekiston fuqarosi sifatidagi fazilatlariga qarab xorijliklar mamlakatimiz haqidagi tasavvurlarga ega bo‘ladilar. Buni har bir yosh avlod nazarda tutishi, shundan kelib chiqib ta‘limga munosabat belgilashi, o‘z – o‘zini va milliy o‘zligini anglashi muhimdir. Ya‘ni yoshlarda o‘z Vatani, xalqi oldidagi yuksak mas‘uliyat hissini barqaror qilish taraqqiyotning yangi, yuqori darajasiga erishishning o‘zi ta‘lim – tarbiya tizimini insonparvarlashtirishni dolzarb masala sifatida qo‘ymoqda.

**Uchinchidan,** bozor iqtisodi munosabatlarini O‘zbekistonda shakllantirishning o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyati shundan iboratki, bu munosabatlar ijtimoiy yo‘naltirilgan mazmunga ega bo‘ladi. Ana shu munosabatlarni shakllantiradigan va unda faoliyat ko‘rsatadigan kadrlarning ichki dunyosi – “Meni” yuksak ideallar, milliy qadriyatlar asosida qaror topishi uchun ta‘lim – tarbiya tizimining butun yo‘nalishi insonparvarlik g‘oyasi bilan sug‘orilgan bo‘lishi lozim. Ya‘ni bozor iqtisodiy munosabatlari shaxsda hayvoniy hirsalar va firibgarlik xislatlaririvoji uchun emas, aksincha, insoniy fazilatlar to‘la ravishda ro‘yobga chiqishiga xizmat qilsin. Boshqacha aytganda, bozor iqtisodiy munosabatlarini shakllantirish, huquqiy demokratik davlat barpo etish, erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishga pirovard ijtimoiy maqsad emas, balki har tomonlama kamol topgan, imon – e‘tiqodli, yuksak madaniyatli insonlarni voyaga etkazish, ular o‘z qobiliyatlari, iste‘odlarini erkin ruyobga chiqarish uchun qulay sharoit sifatida qaralmog‘i lozim.

**To‘rtinchidan,** ta‘lim va tarbiyaning uzluksiz jarayoni insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlanishining nazariy va ilmiy jixatlari shu sohada mexnat qilayotgan kadrlarning ongi va qalbidan zarur darajada o‘rin olishi kerak. Ular ta‘lim – tarbiyani “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ni amalga oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar asosida amalga oshirishlari lozim.

Milliy istiqlol g'oyasini, O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti strategiyasini, o'zbek xalqning buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad – muddaolarini hisobga olgan holda, yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muayyan tizimi va ustuvor yo'nalishlari mavjud. Bunday jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, tarq'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.


10-shakl



Milliy istiqlol g'oyasini singdirishda har bir ota-ona farzandining maktabgacha tarbiyasi uning keyingi taraqqiyot davrida qanchalik ahamiyat kasb etishi, bu davr uzluksiz ta'lim – tarbiyaning muhim bosqichi ekanini anglab etishi nihoyatda muhimdir. Bunda oilaning ta'lim muassasalari tizimiga izchil uyg'unlashuviga erishish zarur. Bu davrdagi barcha bevosita ta'lim beruvchi muassasalar (maktablar, akademik litsey, kasb – hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari) mafkuraviy tarbiyaning asosiy o'choqlaridir. Ularning hamma amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim jarayonida o'quv qo'llanmalari va darsliklar, qo'shimcha adabiyotlarda quyidagi omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim:

- Vatan tuyg'usini shakllantirish;
- ona tilimizga muhabbat uyg'otish;
- milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish;
- ezigulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;
- oilaning vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi rolini ko'rsatish;
- mahallaning demokratiya darsxonasi va o'z-o'zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish va hokazo.

*11-shakl*



**Istiqlol g'oyaviy tarbiyaning mohiyati.** Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi – bu istiqlol g'oyaviy tarbiyadir. Bu inson, ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir – oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir.


Bu bolaning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, insoniy munosabatlar borasidagi o'ziga xosliklar, axloq tamoyillari, go'zallik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu – tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning asosi, poydevoridir. Shuning uchun mafkurasiz inson, mafkurasiz guruh, millat, xalq, jamiyat bo'lishi mumkin emas.

**Istiqlol g'oyaviy tarbiyaning maqsadi.** Har qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi – jamiyatning har bir a'zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhning tarbiyaviy darajasini ta'minlashdir. Bu pirovard natijada o'sha jamiyat rivojiga turki beruvchi ilg'or g'oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, milliy istiqlol mafkurasi O'zbekistonda yashab, ijod qilayotgan har bir fuqaro ongi va shuurida asriy milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi eng aqilom g'oyalar va fikrlar tarzida – xalq, tafakkuri tarzida o'z ifodasini topishi lozim. Bu jihat mafkuraviy tarbiyaning bu xususiyatlaridan biridir.

**Istiqlol g'oyaviy tarbiyaning eng muhim omillaridan biri oiladir.** Oila – jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. O'zini o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf – odatlari va an'analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand – nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida yoshlar ongiga ezigulik g'oyalari singdirib boriladi.


Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr – oqibat, el – yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o'rni beqiyosdir.

Mafkuraviy ta'lim-tarbiya tizimi va funksiyalari quyidagilardan iborat:



Mehnat jamoalari inson umrining asosiy qismi o'tadigan uning talakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy ma'naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi mehnatsevarlik omilkorlik, adolat qo'lgunchasi, mehr – oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydigan mehnat jamoalari bo'lib, turli millat va diniy e'tiqodga mansub odamlarni do'stlik va hamjihatlik, o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlikka e'tibor berib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, sog'lom ma'naviy muhitni vujudga keltirish muhim omil vazifasini bajaradi.


13-shakl



Mafkuraviy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biri muloqot hisoblanadi. Chunki inson qalbida va ongida shakllanadigan dunyoqarash, e'tiqod, iymon, vijdon, mas'uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio – televidenie, gazeta – jurnallar, badiiy kinofilmlar hamda badiiy adabiyotning o'rnini e'tirof etgan holda, shuni aytish mumkin, yuzma – yuz kechadigan fikr almashuv, insonning yuzi va bula ko'ziga qarab turib aytiladigan bama'ni so'z va hissiyotlarning

o'rni beqiyos. Shuning uchun ham ota – ona bir gapni aytishi lozim bo'lsa, bolasining yuzini o'ziga qaratib olib, zarur yuz qiyofasi va yuzidagi samimiyat bilan fikrini o'qtira boshlaydi. Va bunday muloqot samarali bo'ladi. Shu bois auditoriyalarda o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi muloqot ta'lim va tarbiya jarayonida katta ahamiyatga egadir.

14-shakl



Sog'lom dunyoqarash, mas'uliyat, imon va e'tiqodni yoshlar ongida shakllantirishning quyidagi asosiy ob'ektiv shart – sharoitdagi omillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy – ma'rifiy muhit;
- b) siyosiy ong va huquqiy madaniyatning o'sishi;
- v) yoshlarning bilim darajasi;
- g) odatiy, an'anaviy fikrlash tarzidan yangicha, erkin fikrlashga o'tish.

Mustaqillik davri yangicha islohotlar, demokratiya, bozor munosabatlari sharoitlari aynan tafakkur va fikrdagi o'zgarishlarni

taqozo etadi, ana shu jarayon birdaniga, tez va bir tekisda ro'y bermaydi. Bu marakab, bosqichlana – bosqich amalga oshadigan jarayon bo'lib, unda bu ijtimoiy qatlam vakillari bilan birga yoshlar tashabbus ko'rsatishi, o'z dunyoqarashi va e'tiqodi bilan boshqalarga ta'sir o'tkazishi kerak.

Mafkuraviy tarbiya ma'lum tizimga ega bo'lib, bu tizimdagi xilma-xil bo'g'inlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu borada mafkuraviy tarbiya sub'ektlari alohida o'rin tutadi.

Jamiyat a'zosi sifatida, inson doimo turli guruh jamoalarning vakili sifatida ularning ta'siri ostida bo'ladi. Ya'ni har bir shaxsning fe'l – atvorida, xatti – harakatlariga mansub bo'lgan millat, xalq, professional (kasbiy) toifa, jamoa oilaning ijobiy yoki salbiy ta'siri bo'ladi.

Tarixiy shart – sharoit, davr, davlat tuzumi va o'sha jamiyatda siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta'sirlar uning dunyoqarashi, fikrlash usuli, tafakkurida o'z aksini topadi. Bunday ta'sirlarning ikki xili mavjud:

- makro bosqichdagi ta'sirlar yoki keng ma'nodagi ijtimoiy ma'naviy, siyosiy hamda iqtisodiy muhit ta'sirlari;

- mikro bosqichdagi ta'sirlar yoki bevosita inson tug'ilib o'sadigan oila, ta'lim va tarbiya maskanlari jamoasi, mahalla va do'stlar muhitidagi ta'sirlar.


Bir qarashda inson fe'l-atvorini ikkinchi darajali ta'sirlargina belgilaydiganдай tuyuladi. Chunki “qush uyasida ko'rganini qiladi” deganlaridek, ayniqsa, o'zbekchilikda oilasi, nasli – nasabi, mahallasi, ta'lim olgan bilim darog'iga katta e'tibor beriladi va bunday munosabat hayotda o'zini oqlamaydi ham. Lekin makro bosqichdagi ta'sirlarning ahamiyatini kamitish ham to'g'ri bo'lmaydi. Masalan sobiq sho'rolar tuzumi davrida jamiyat a'zolarining mute, tobe, ixlossiz, ba'zi bir jihatdan timsiz bo'lib kamol topishiga zamin yaratgan ediki, bunga asosan o'sha muhitdagi nosog'lom, inson qadrini erga uruvchi iqtisodiy siyosat va mafkura sabab bo'lgan.

Mafkurani amalga oshiruvchi shaxsdan avvalo, tajriba, bilimdonlik, ishonira olish qobiliyati, uning nutqi, o'ziga ishonch va boshqalar talab qilinadi. Mafkurachilarning ish uslubi, o'zida mavjud bilim tushunchasi, g'oyalarni asosiy qilib olgan holda, birinchi navbatda yoshlarda, qolaversa, keng xalq ommasi ongida mustahkam e'tiqodni shakllantirish, ta'sir ko'rsatishdir. Bunda u muloqotning barcha samarali va ta'sirchan vositalaridan – monolog, dialog, bahs-munozara kabilardan foydalanadi. Aynan ana shu faoliyat har bir ta'sir ko'rsatuvchining




ritorika asoslaridan xabardor bo'lishini, nutq mahoratini egallashini talab qiladi. So'zlovchi nutqiy va nutqiy bo'lmagan vositalardan o'z o'rnida maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishi shart. Hissiy ta'sir usullari – o'rinli ishlatilgan qarashlar, imo-ishora, mimika kabilar ham ta'sirni kuchaytiruvchi psixologik mexanizmlar ekanini unutmaslik kerak.

15-shakl



Tarbiyachidan talab qilinadigan yana bir muhim xislat – gapirayotgan kishining yoqimtoyligidir. Bu ham notiqqa nisbatan ishonch va e’tiqodni oshiradi. Yoshlar auditoriyasida notiqning murojaatiga e’tibor jiddiyroq bo’ladi. Ziyoli, olimlar va o’qituvchilar auditoriyasida mantiqiy, ilmiy tahlillarga asoslangan fikrlar, mulohazalar katta ta’sir kuchiga ega bo’ladi.

16-shakl



Notiqning nima haqida gapirayotgani (axborotning mazmuni) ham mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, shaxsga ham aqlan asoslangan (ratsional), ham emotsional (hissiyot uyg'otuvchi) ma'lumotlar tez ta'sir qiladi. Bunda auditoriya xususiyati nazarda tutilishi kerak. Masalan, o'qimishli, tushungan shaxslar auditoriyasi faktlarga tayangan, asosiy ma'lumotni tez qabul qilib, unga ishonsa kichik yoshlilar, ma'lumot darajasi pastroq shaxslar esa ko'proq yurakka yaqqin, emotsional (hissiyot uyg'otuvchi) ma'lumotga o'ch bo'ladi. Mafkuraviy axborot yozma tarzda etkazilishi mumkin. Birinchisiga gazeta, jurnallar, kitoblar darsliklar, yozma manbalarda mujasamlashgan ma'lumotlar kiradi ikkinchisiga ma'ruza, darsni bayon etish, munozara va suhbatlar o'tkazish kiradi. Bundan tashqari, mafkuraviy g'oyalar turli badiiy va hujjatli filmlar, bolalar yoki kattalar uchun yaratilgan multfilmlar orqali ham etkazilishi mumkin. Muhimi, ular ham ma'naviyat va o'lmas merosimiz, kelajakka ishonch uyg'otuvchi ma'no – mazmun bilan yo'g'rilgan bo'lishi kerak.

17-shakl



#### 4. PEDAGOGIKA FANINING METODOLOGIK ASOSLARI

Fanning metodologik muammolariga barcha davrlarda ham alohida e'tibor qaratilgan. Bugun ham mamlakatimizda bilimning bu sohasiga qiziqish kuchayib bormoqda. Ijtimoiy hayot davomiyligi va fan rivojining yuqori obstraktsiya pog'onasi murakkab, echimi birmuncha qiyin bo'lgan savollarni yuzaga chiqarmoqda. Tabiiyki, ularning ilmi bilishning eskicha yondashuqlari yordamida hal etilishi mushkul. Metodologiya ham amaliyot talabalaridan ortda qolishi, ijtimoiy qadriyatlarining o'zgarish qonuniyatlariga bog'liq holda rivojlanmasligi mumkin emas.

Birinchi navbatda yangi metodlarni izlab topish jarayoni davom etmoqda, mavjudlarini tubdan takomillashtirish, ilmiy bilish mantiqini loyihalash, tadqiqotlar samarasini oshiradigan texnikaviy qurilmalarni yaratishi e'tibor qaratilgan. Boshqa tomondan, metodologiyaning dunyoqarash jihatlari – chuqur nazariy umulashma, bashoratlash, fan strategiyasini va uning mavqeini oshirish jamiyat islohotlariga mos ravishda amalga oshirilmogda. Bu jarayonlarning tezlashuvini ta'minlashda o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos bo'lish, milliy istiqlol g'oyasini omma ongiga singdirish, bunda ommaviy kommunikatsiyaning barcha vositalaridan foydalanish sezilarli samara berish sir emas.

*Metodologiya – (yunoncha-metodlar haqida ta'limot) ijodiy jarayon sifatida ilmiy bilish yo'llari va vositalarining, ilmiy tadqiqot qonuniyatlarining, ularni taqqoslash va tizimlashtirish zamirida yuzaga kelgan. Demak, metodologiya ilmiy bilish faoliyatining mohiyatini yo'llari va vositalarining nazariy muammolarini, shuningdek, ijtimoiy jarayon sifatida ilmiy tadqiqot qonuniyatlarini o'rganadi.*

Metodologiya tushunchasi murakkab va har doim ham bir xilda talqin qilinavermaydi. Birinchi navbatda u keng ma'noda – fan metodologiyasi sifatida qo'llanilib, bircha ilmiy fanlar uchun ilmiy bilishning falsafiy tayanchi xisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, metodologiya fan sifatida ob'ektiv borliqni bilish haqida ta'limot (nazariyasi)dir. Tor ma'noda esa aniq ilmiy fanlar (shu jumladan pedagogika) uchun ilmiy bilish nazariyasini anglatadi. Demak, metodologik bilimlarning umumiy tizimida metodologiya o'rnini aniqlashtirish uchun mavjud.

Aniq fanlar metodologiyasi umumiy metodologiyaga tayangan holda:

1. uning talablarini muayyan fan ob'ekti tashkil etadigan hodisa va jarayonlarni o'rganishga tatbiq etadi;
2. o'zida bilishning aniq ilmiy metodlari haqidagi nazariyani o'rganilatyogan hodisa va jarayon qonuniyatlarining o'ziga xos jihatlarini bilan bog'liq holda mujassamlashtiradi.

**Pedagogika – boshqa rivojlangan fanlar qatori o'zining alohida predmetiga, nazariy printsiplariga ega va alohida tadqiqot metodlarini biluvga tortilgan ob'ektiv voqelikning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini xisobga olgan xolda qo'llaydi.**

Metodologik muammolarni ishlashdagi siljishlarning mavjudligigav qarmasdan, qator nazariy-metodologik muammolar echimsiz qolyapti. Etarlicha tadqiq qilinmayapti. Fikrimizcha, metodologik muammolarni ishlab chiqish kamida ikki shartni hisobga olishni taqozo etadi.

**Birinchi shart** – pedagogika birmuncha dolzarb muammolari bilan maktab, akademik litsey, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining amaliy vazifalari o'rtasidagi aloqadorlikni kuchaytirish lozim. Bu bizni soxolistik nazariyalashtirishdan, umuimy mulohazalashdan tiyib turadi. Asosiy e'tiborni shunday tadqiqot yo'nalishlari va muammolariga qaratish lozimki, natijada pedagogika fanining hayotiy muhim masalalari echimini topish uchun metodologik yondashuvlar bilan bizni qurollantirisin, ta'lim va tarbiyaviy jarayonning amaliy vazifalari echimini ta'minlansin.

**Ikkinchi shart** – metodologiya va pedagogika nazariyasi muammolarini ishlab chiqishga yuksak malaka va tajribaga ega, ilmiy jihatdan etuk universitet, institut hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlarni jalb etish lozim.

Metodologiyaga e'tiborning kuchayishi, kun tartibida turganligining ob'ektiv omillari mavjud; mamlakatimizda insonparvar demokratik huquqiy davlat zaminida adolath fuqarolik jamiyati qurilmoqda va ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotiga mos holda tubdan yangilandi. Bu yangi modelning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagogik tadqiqotlar natijasiga, umuman pedagogika fanining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir.

Dastlab pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati, ularning mantiqi, metodologik tavsifi bilan bog'liq quyidagi masalalar aniqlashtirilmog'i lozim:

- pedagogikaning nazariy tadqiqotlari samarasini oshirish;
- pedagogik tajribani o'rganish va natijalaridan foydalanish;

- pedagogik tajriba-sinov, uning mohiyati, metodikasini oydinlashtirish;
- fan yutuqlarini ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish muammolari;
- tarbiyaga yaxlitlikda yondashish, bunda mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati;
- pedagogika fanini milliy va umuminsoniy tajribalar asosida rivojlantirishning metodologik jixatlari va x.k.

Anu shu savollar doirasidan ma'lum bo'ladiki, mavjud bilimlar bilan yashash, zamonaviy talab va ehtiyojlarga befarq qarash, mumkin emas. Bunday sharoitda tabiiyki, "tayanch" nuqta amaliyot bo'lishi lozim, ya'ni zamonaviy o'zbek ta'limi holati – haqiqiy haqiqat mezonini hisoblanadi. Amaliyot ta'siri ostida nazariya ilmiy kashfiyotlarning asosiy omiliga aylanadi. Faqat keng va har tomonlama tashkil etilgan amaliyotgina faoliyatning kamchiligini va etilmaganligini hamda ayni vaqtda pedagogik voqalikni bilishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilinishi va rivojlantirishning tarixiy ahamiyati – bu ta'limning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks etgan – "inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" (23-modda) – printsiptiga amal qilgan holda insoniylikka yo'naltirilganligidir. Insoniy ustuvorlik ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsipti sifatida O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonunida ham o'z ifodasini to'liq topgan: "*Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi*" (3-modda).

Demak, bu mantiqan aytganda, "bitiruvchi"ni tayyorlashdan "erkin shaxs"ni shakllantirishga o'tishni anglatadi. Chunki erkin fikrga ega inson, ma'lumotli shaxs nafaqat ijtimoiy tizim ichida xarakatlanadi, balki uni o'zgartirishda ham faol bo'ladi. U olam va odam munosabatlarini umuminsoniy qadriyatlar kontekstida qabul qiladi.

Bugun mamlakatimizda qator o'qituvchilarimiz pedagogik g'oyalar targ'ibotchisiga aylanishda, o'zlari ham bevosita targ'ibotchilik faoliyatini namoyish qilmoqdalar, tasdiqlangan dastlabki materiallar bilangina emas, balki o'zining shaxsiy ijodiy rejasi asosida ish yuritmoqdalar. Yangilikka, erkinlikka, mustaqilikka intilish hozirgi zamon o'qituvchisining shaxs sifatleri tarkibiga kirib ulgurdi, endi an'anaviy o'qitish tizim o'z o'rnini milliy istiqloq g'oyasi bilan sug'orilgan va qat'iy ilmiy asosda tashkil etilayotgan zamonaviy pedagogik tizimga bo'shatib beryapti. Pedagogik amaliyotning turli

omonlarini qamrab olayotgan kuchli innovatsion impuls harakati lavom etmoqda: ta'lim mazmunini yiriklashtirish, natijalarini oldindan belgilash, o'qitishni psixologiyalashtirish, kompyuterlashtirish, interfaol o'qitish va tarbiya metodlari, ta'limni boshqarishga qaratilgan tashabbuslar vujudga keldi. Shu o'rinda metodologik muammolarning quyidagi yo'nalishlariga, uning alohida tomonlariga qisqacha izoh berishga harakat qilamiz.

### **1. Pedagogika predmeti va uning chegarasi.**

Pedagogik tadqiqot bu yo'nalishi ba'zi e'tirozlarni paydo qilishi mumkin. Chunki aksariyat ko'pchilik pedagogika predmeti va uning chegarasi allaqachon aniqlangan, deb o'ylashadi: u – **tarbiya haqidagi fan**dir. Bu ta'rif pedagogikaga ko'p asrlar oldin berilgan, ma'lum na'noda an'anaviy ta'rif deyish mumkin. Afsuski, bu izoh bugungi kunda talabiga to'liq javob bera olmaydi, qator xollarda chalkashlikka olib keladi, fanning ta'sir doirasini toraytiradi. Gap shundaki, pedagogik adabiyotlarda "**tarbiya**" atamasining o'zi turlicha izohlanadi: 1) keng ijtimoiy – insonga o'rab turgan ijtimoiy muhit ta'siri; 2) keng pedagogik – o'quv tarbiya jarayonini butunlay qamrab oladigan maqsadli faoliyat; 3) tor pedagogik – tarbiya deganda maxsus tarbiyaviy usullar tushuniladi; 4) birmuncha torroq – tarbiyaviy kuch yo'naltirilgan holat, maslan, vatanparvarlikni tarbiyalash (axloqiy tarbiya), diniy tasavvurlarini shakllantirish (nafosat tarbiyasi) tushuniladi – Yu.K. Babanskiy).

Pedagogika ta'lim haqidagi yagona fan sifatida ham e'tirof etiladi, u fan vakillari u yoki bu ta'limiy faoliyat bilan shug'ullanadilar (V.V.Kraevskiy). Shunday ekan, pedagogikani ta'lim va tarbiya haqidagi fan sifatida talqin etish to'g'ri buladi. Bu o'z navbatida shaxsni maqsadga mos holda shakllantirishning ikki qanotida anglatadi. Shu sababdan birmuncha aniq ta'rif quyidagicha bo'lishi mumkin: **pedagogika – bu shaxsni maqsadli shakllantirish haqidagi fan**dir.

Ma'lumki, shaxsni shakllantirishda irsiyat, muhit, pedagoglarning maqsadli faoliyati, insonning xususiy faoliyati va o'z-o'zini tarbiyalash omilari katta imkoniyatlarga ega. Taklif qilinayotgan ta'rif fanning navqesini pasaytirmaydi, aksincha, uning qator afzalliklarini sanab o'tishi mumkin: birinchidan, pedagogik faoliyat o'zini shaxsni rivojlantirish va tiklash omillari (irsiyat, muhit va b.) orasida belgilab o'radi; ikkinchidan, pedagogik jarayon sifatida ta'lim va tarbiya hamiyatini muvozanatlashtiradi; uchinchidan, "**tarbiya**" atamasi qaysi na'noda (tor yoki keng) ishlatilishini ko'rsatish zaruratidan soqit qiladi.

Shaxsni shakllantirish muammosi bilan butun sotsiologiya, falsafa, psixologiya, etika va boshqa qator fanlar shug'ullanishadi. Agar sotsiologiya tarbiyani ijtimoiy rivojlanishning omili sifatida qarasa, psixologiya tarbiyaga shaxsni ruhiy rivojlanishi vositasi tarzida murojaat qiladi. Etika tarbiya masalalarini axloqiy taraqqiyoti nuqtai nazaridan talqin etiladi. Bu fanlardan farqli o'laroq, pedagogika shaxsni shakllantirishning ikkitabiatini tadqiq qiladi, ularning tuzilmasini aniqlashtiradi, qonuniyatlarini ishlab chiqadi, ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatlar texnologiyasini loyihalaydi.

Pedagogika fani predmeti aniqlash, uning boshqa fanlar bilan aloqasi va o'zaro ta'sir doirasini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi lozim. Bu muammo hozircha umumiy tarzda yoritilgan bo'lib, aslida kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida ham mazmun jihatdan, ham mantiqiy bog'lanishlar jihatdan uning tavsifnomasi ishlab chiqilishi lozim.

Har bir fanning rivojlanish doirasini tadqiqotlarni tabaqallashtirish va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligining xilma-xilligiga bog'liq holda muhokama qilinishi lozim.

Mustaqillik yillarida pedagogika fanlari tizimi ham birmuncha kengayib bormoqda. Bu demakki, pedagogika fanining o'z ob'ekti, predmeti, ilmiy tushunchalar tarkibi, ularning mantiqi, nazariya va amaliyot mutanosibligi kabi qator savollarni yangicha talqinda ifodalash zarurati mavjud. Boshqacha aytganda, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar pedagogikani o'rganadigan fan paradigmasini almshatirish g'oyasini vujudga keltirayapti.

Pedagogik paradigma ilmiy faoliyat modeli sifatida bir tomondan ta'limda fanlararo tadqiqotlarning nufuzi oshayotganligini, pedagogika fanining integrativ funksiyasi kuchayayotganligini ko'rsatsa, boshqa tomondan ta'lim – tarbiya qonuniyatlarini o'z predmeti sifatida qabul yagona fan sifatida pedagogikaning nazariy mavqicini oshirish va maqomini aniqlashtirish vazifasini ilgari surdi.

## **2. Pedagogika metodologiyasi**

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni echish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalar ishonchliligini ta'minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlar pedagogik (yoki ixtiyoriy



boshqa) tadqiqotlari samarli tashkil etish va etkazish mumkin emasligini qitiradi.

Ijodiy jarayon bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, ning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, larning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

### **Metodologiya funktsiyasi asosida aniqlash.**

Metodologiya alohida fan sifatida ikki funktsiyani bajaradi: **deskriptiv** (ifodalovchi) va **perskriptiv** (me'yorlovchi). Birinchisi – ob'ektni nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, keyingisi – tadqiqotchining ishlashi uchun mo'ljal olishga shart – sharoit tug'diradi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi – nazariy va me'yoriy.

**Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga** quyidagilarni kiritish mumkin: metodologiya ta'rifi; fan metodologiyasining umumiy tavsifi, ning darajalari; metodologiya bilimlar tizimi va faoliyatlar tizimi sifatida; pedagogika sohasidagi tadqiqiy faoliyatni metodologik ta'minlash manbalari; pedagogik tadqiqot ob'ekti va predmetining metodologik tahlili.

**Me'yoriy asosi** quyidagi savollar doirasini qamrab oladi:

- pedagogikani ob'ektiv borliqni ma'naviy o'zgartirishning boshqa shaklidan farqli ilmiy asoslash;

- pedagogika sohasidagi ishlarni fanga taalluqliligini aniqlash: - maqsadning o'ziga xosligi; maxsus tadqiqot ob'ektini ajratish; maxsus o'qitish metodlari va vositalarini qo'llash; atamalarning bir xilligi;

- pedagogik tadqiqotlarni guruhlarga ajratish;

- tadqiqot tavsifnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazlari, himoya talab qilinadigan holatlar, yangiliklar, fan uchun muhimligi, amaliyot uchun muhimligi;

- pedagogik tadqiqot mantiqi;

- pedagogika fanlari tizimi, ularning o'zaro aloqasi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va me'yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini tashkil etadi.

### **Falsafiy asos mavqeidan aniqlash.**

Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish va kurish printaplari va usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta'limot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog'i, metodologiya predmeti – faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariya demakdir.

Bu erda qaysi faoliyat haqida fikr yuritilyapti?

Ilmiy faoliyat nazarda tutilyaptimi yoki pedagogik faoliyat?

Bu savolga javobni quyidagi tahlil natija asosida topish mumkin.

Agar o'qituvchi kundagi odatiy nomahsul (**reproduktiv**) faoliyat bilan mashg'ul bo'lib, har doim o'zi o'zlashtirgan bir xildagi texnologiya bilan ish ko'rsa "dars beruvchi" sifatida faoliyat ko'rsatsa, bu erda metodologiya haqida gap bo'lishi mumkin emas. Aksincha, mahsuldor (**produktiv**) faoliyat namoyish etib, misol uchun, ilmiy – tadqiqiy pedagogik faoliyat ko'rsatsa yoki o'zining xususiy mualliflik o'qitish tizimini yaratsa, shubhasiz, metodologik faoliyat vujudga keladi. Keyingi holatda ikki qarama – qarshi tushuncha – loyiha va refleksiya – asosiy o'ringa ko'tarilyapti. Ma'lumki, har qanday mahsuldor faoliyat loyihalash ko'nikmalarini talab etadi. Ilmiy –tadqiqiy ishlarining quyidagi bosqichlari – ziddiyatlarni aniqlash, muammoni ifodalash, farazlarni qurish va h.q. – mantiqan tadqiqot loyihalash usulidir.

Amaliy pedagogik faoliyatda ham ta'lim (tarbiya) tizimlarini loyihalash ishlari amalga oshiriladi. Bunga "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida yaratilgan zamonaviy ta'lim tizimi, uni rivojlantirish kontseptsiyasi ("portlash effekti") misolida iqror bo'lishimiz mumkin.

Ijodiy faoliyatni tashkil etishda har doim refleksiya – loyihaning, jarayon va natijalarning doimiy tahlili muhim o'rin tutadi.

Xulosa sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi ham, amaliy pedagogik faoliyat metodologiyasi ham quyidagi uchlik yaxlitligida qurilishi mumkinligini ta'kidlash lozim:

**"loyiha texnologiya (ilmiy - tadqiqiy yoki pedagogik) refleksiya" (A.M. Novikov).**

Bu yondashuvlarga tayanib hamda mavjud adabiyotlar tahlili asosida pedagogika metodologiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

**Pedagogika metodologiyasi o'zida pedagogik nazariya asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishning yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, bu bilimlar tizimini qo'lga kiritish bo'yicha faoliyat tizimini mujassamlashtiradi.**

Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ilmiy bilishning ikki jihati – bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki faoliyat turi – metodologik tadqiqot va metodologik ma'minot hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatlari va yo'nalishlarini, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini

oshirish printsiplarini, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi – metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi.

Shu bilan birgalikda pedagogik muammolarning umumnazariy muammolar bilan almashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Chunki, birinchisi "qanday qilib metodologiyani pedagogikaga qo'llash mumkin" degan savolni aniqlashtirsa, ikkinchisi – umumnazariy savollar esa pedagogikaning predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, ta'lim va tarbiya mohiyati kabi umumiy savollar echimga qaratiladi<sup>1</sup>.

### 3. Pedagogikaning ilmiy tili

Zamonaviy fan rivojiga bog'liq holda fan tilining metodologik nasalalari ham kun tarbida turadi. Fanda tildan foydalanish muammosi ilmiy fan sifatida pedagogikani ham chetlab o'ta olmaydi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida amaliy faoliyatda va bilish jarayonida kki asosiy vazifani bajaradi:

- 1) insonlar o'rtasida aloqa vositasini o'taydi
- 2) tafakkur shakli sifatida to'plangan bilimlarni qayd etish va saqlash, tizimlashtirish uchun zarur hisoblanadi.

Ma'lumki, til bilan qator fanlar –lingvistika, psixologiya, semiotika (belgilar haqidagi fan), falsafa shug'ullanadi. Metodologiya ilni ilmiy bilimlarni ifodalash, ularni qayta ishlash, ilmiy axborotlarni o'plash va saqlash vositasi sifatida o'rganadi.

Pedagogika boshqa fanlar qatori milliy tildan ilmiy axborotlarni shakllantirish, ishlov berish, saqlash va uzatishning universal vositasi sifatida foydalaniladi.

Biz tilda turli darajadagi tushunchalarga tayanamiz. **Tushuncha** – bu predmetlarnig umumiy va o'ziga xos sifatlari haqidagi fikrdir. Tushuncha asosida predmetlar o'xshashligi va farqlari aniqlanadi.

Albatta, tushunchalar mohiyatini anglashda odamlar ham bir-biridan farqlanadi. Shu boisdan milliy til so'zlari ham bir xil emas, ular amaliy faoliyatda turlicha muhimlik kasb etadi va muloqot jarayonida ekislanib, aniqlanib boraveradi.

Har qanday fan, jumladan pedagogika ham aniq tushunchalar izimini talab etadi. U milliy til asosida yaratiladi va ilm tili, ya'ni

G.I. Sarantsev. Metod obucheniya kak kategoriya metodiki prepodovaniya// Pedagogika, 1998  
№1, s. 28-34.

pedagogikning tushuncha-toiflart tizimi shakllanib oradi. Toifa tushunchadan bir bosqich yuqori turadi va ayni vaqtda o'zida ularning belgi va xususiyatlarini saqlab qoladi. Shu bois toifa tushunchadir, biroq barcha tushunchalar toifa bo'la olmaydi.

Pedagogika bo'yicha ilm tilini shakllantirish murakkab jarayon, u hanuzgacha qoniqarli darajada tadqiq qilingan emas. Bu fan ham boshqalari qatori hayotiy tildan ko'plab atamalarini qabul qiladi. (**“shakl”**, **“metod”**, **“tarbiya”** va **b.**). Uning vazifasi atamalardan bir xildagi tushunchalarni shakllantirishdir.

Shu bois mumkin qadar tushunchalarni faol ilmiy muloqot tarkibiga kiritish uchun aniqlashtirish, chegaralashga harakat qiladi.

Pedagogikada ilmiy nutqning lug'at zahirasi yangi, maxsus terminlar va ta'riflar bilan boyib boradi. (*“pedagogik texnologiya”*, *“innovatsiya faoliyat”* va *b.*), ba'zan bunday boyish boshqa fanlar evaziga ham bo'lishi mumkin. (*“boshqarish”*, *“axborot texnologiyasi”*) yoki eski ta'riflar yangicha talqinda ifodalanadi. Misol uchun *“o'qitish metodi”* ning an'anaviy ta'rifi (belgilangan maqsadga erishish yo'lidagi o'qituvchi va o'quvchi-talabanning o'zaro harakat usullari) go'yo o'zgarmaydigandek edi. Biroq Gegel ta'limotiga ko'ra, metod harakatdagi ob'ektni o'rganish usulidir. Shunga asosan, o'qitish metodiga berilgan eng so'nggi va yangi ta'rif quyidagicha: o'qitish metodi – bu xarakatdagi o'quv materialini o'rganish bo'yicha o'qituvchi va o'quvchi-talabanning xamkorlikdagi faoliyat usullaridir.

Foydalanilayotgan atamalarning aniq ta'rifi va maxsus pedagogik lug'atini shakllanishi pedagogika fani tiliga mos holda amalga oshirilishi zarur. Bu fanning o'ziga xos tomoni shundaki, uning tili odatiy (kundalik) tilga juda yaqin bo'lgani uchun tushunish birmuncha engil kechadi. Shu sabali maxsus pedagogik tillar nafaqat o'qituvchi va tarbiyachiga tushunarli, balki ularni ota-onalar, o'quvchi-talabalar va keng jamoatchilik ham tez hazm qilishadi. Boshqa tomonidan odatdagi til bilan ilmiy tilning yaqinligi fan sifatida pedagogika uchun xususiy bo'lgan metodik xaraterdagi jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Maxsus pedagogik atamalar sifatida vo'llanilayotgan tushunchalar induktiv tarzda hammaga tushunarli (ta'lim, tarbiya, o'qitish va b.), ular o'ta aniqlikni talab qiladigan vaziyatlarni vujudga keltirmaydi. Shu boisdan bu tushunchalar milliy tilda tavsiflangan holda turlicha ta'riflanadi va o'z navbatida aniqligini bir qadar yo'qotadi. Fikrimizning isboti uchun *“tarbiya”* tushunchasining mohiyatini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarni keltirish mumkin. Biroq

tushunchalarni aniq ta'riflash ilmiy pedagogik g'oyalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Belgilar yordamida aniq ilmiy tilni yaratish pedagogikada ham kuzatiladi. Pedagogika o'z tadqiqotlari natijalarini nafaqat yozma ravishda, balki chizma, jadval, shkalalar orqali ham ifodalaydi. Keyingi vaqtlarda pedagogik hodisalar tahlil uchun kibernetika, informatika, matematika, mantiq fanlarining tushuncha va ramzlaridan keng foydalanilmoqda.

Erishilgan yutuq bilan fan tilining rivojlanishi to'xtamaydi, u vaqt o'tgan sayin rivojlanib boraveradi. Shubha yo'qki, pedagogika fanlarining ilmiy tiliga oid metodologik savollar e'tiboridan tushmaydi, qolevarsa, har bir ilmiy termin jiddiy tadqiqotlar natijalari asosida vujudga keladi. Qo'llanilayotgan atamalarning bir xilligi ma'lum ilmiy sohada hodisalarni bir xilda tushunishga imkon beradi, bilishning bugungi taraqqiyoti kecha erishilgan yutuqlarga tayanadi, ya'ni nammasini yangidan boshlashga hojat qolmaydi.

#### **4. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tavsifi**

Metodologiyaning pedagogika uchun muhimligi, bir tomondan, fan rivojining umumiy xususiyatlari bilan, boshqa tomondan, pedagogik ilmlar rivojining o'xiga xosligi bilan, uchunchi tomondan, bilish usul va usulchilarining murakkabligi bilan belgilanadi. U o'zining rivojlanishi davomida boyib boradi, tajriba orttiradi, ob'ektiv voqelik hodisasi sifatida arbobyaning muhim qonuniyatlari va tamoyillarini ochib beradi.

Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari dolzarb va amaliy jihatdan muhim masalalarning yangicha echimlarini izlab topish jarayonining tezlashuvi, ayni vaqtda istiqbolli muammolarning nufuzi oshib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda. Bunda ikki yo'nalishdagi tadqiqotlar alohida ko'zga tashalanadi:

1. Umumiy xarakterdagi yirik tadqiqotlarni talab etadigan keng doiradagi muammoni o'rganish
2. Murakkab pedagogik jarayonlarning ichki, nozik qirralarini topishga imkon beradigan tor muammolar echimiga qaratilgan chuqur detalli o'rganish.

Birinchi yo'nalish tarafdorlari pedagogik jarayonning barcha usullari o'zaro aloqada va ularni ajratish yaramaydi, degan dalilga e'tibor berishadi, pedagogik tajribani yaxlit o'rganish zarurligiga urg'u berishadi. Biroq ular quyidagi holatni nazardan chetda qoldirishadi:

pedagogik jarayon o'zining bor munosabatlari bilan olib qaralganda pedagogika fani ob'ekti hisoblanadi. Ikkinchi yo'nalish vakillari pedagogik jarayonning alohida unsurlari (*metod, shakl va b.*) o'rganshga urungan holda bir narsani unutmishadiki, o'quv-tarbiyaviy ishlar tizimida yulib olingan hech bir vosita to'liq hisoblanmaydi.

Bugungi kunning jiddiy metodologik muammosi – bu zamonaviy ta'limni pedagogik tadqiqotlarga oid ilmiy muammolarda ishonarli va samarali aks ettirishdir.

Bajarilayotgan tadqiqotlarda uchraydigan umumiy kamchiliklar:

- ✓ Mavzularning dolzarb pedagogik muammolar echimiga qaratilmaganligi, ular yangi, kontseptual g'oyalarning yo'qligi
- ✓ Farazlarning isbot talab qilmaydigan holatda noaniq ifodalanishi
- ✓ Jiddiy xulosalarning yo'qligi, ularning nazariy va amaliy jihatdan noaniqligi
- ✓ Shablonlik (bir qolipdalilik)
- ✓ Tavsiyalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yo'qlig va b cheklaydigan asosiy omillar:
- ✓ Malakaning etarli emasligi;
- ✓ Umrini yashab bo'lgan sobiq sovet pedagogikasi g'ochlaridan xalos bo'la olmaslik
- ✓ Tadqiqot metodlaridan to'g'ri foydalan bilmaslik va b.

Zamonaviy pedagogik bilimlar sezilarli darajada shu kunga qadar takrib topgan tushunchalarining an'anaviy tizimi girdobidan chiqib ketadi. Bunday sharoitda pedagogika fanining o'z predmeti, chegarasi va xarakteri, ilmiy bilimlarni egallash, ularni amaliyotda qo'llash kabi masalalarni yangicha talqinda qo'ymoqda. Boshqacha qilib aytganda, metodologik muammolarni nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyasi darajasida tadqiq qilishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Ular qatorida:

- ✓ Pedagogikada ilmiy fakt muammosi
- ✓ Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish texnologiyasi
- ✓ O'qitish tarkibi, tuzilmasi va funktsiyalarini ilmiy asoslash
- ✓ Nazariya va amaliyot kabi fundamental tadqiqotlar ham o'z echimini kutyapti.

Tadqiqot taqdiri metodlariga bog'liqligi sir emas. Pedagogik tadqiqotlar metodi agar pedagogikhodasalrning ob'ektiv mohiyatini to'g'ri ifodalasa, pedagogika predmetining o'ziga xosligiga javob bersa, shubhasiz, ilmiy deb e'tirof etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda,

pedagogik tadqiqot metodlari uchun metodologik baho zarur bo'ladi. Afsuski, ularni yoritishga bag'ishlangan ishlar kam, borlari ham rus tilida, o'zbek tilida bu soha bo'yicha birorta yirik pedagogik

Pedagogik tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotchining metodologik madaniyatiga to'g'ri proporsionaldir. Shu boisdan bu tushuncha integral sifat ko'rsatkich hisoblanib, tadqiqotchidan o'zida xususiy ilmiy faoliyatni tahlil qilish ko'nikmasini, ma'lum kontsepsiya (nazariya)ni ilmiy asoslash va ijodiy qo'llash qobiliyatini egallashni talab etadi.

Bugun har bir pedagogik tadqiqot qoidaga ko'ra, joriy etilgunga qadar ilmiy asoslanishi shart: dastlabki holat; tadqiqot mantiqi; kutilayotgan natijalar, ularga erishish metodlarini belgilash; iste'molchilar bilan hamkorlik o'rnatish; uni joriy etish shartlarni ishlab chiqish; iqtisodiy manfaatdorlik va h.q.

Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning murakkab turi hisoblanib, u ishonchli qo'llarda – metodologiyani chuqur o'rgangan, ilmiy tadqiqot metodlari bilan qurollangan Shaxs tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Olimning qiyofasi, ruhiyati va tiynati haqida maxsus adabiyotlarda batafsil yoritilgan, ayniqsa, uning quyidagi sifatlari alohida qayd etiladi; haqiqatga, noma'lumni bilishga jiddiy intilish; kuzatilayotgan hodisa va jarayonlarni tasniflash qobiliyati va kuzatuvchanlik; ilmiy tafakkurning analitik – sintetik jamlanmasi va b. Tadqiqotchi tafakkurining xarakteri haqidagi savol birmuncha mulohazalidir. Bu murakkab jarayonni to'liq tasvirlashga da'vogarlik qilmagan holda jihatlariga e'tiborni qaratamiz:

**Ob'ektivlik** qaralayotgan hodisa va jarayonlarning qandaydir begona, yot tadqiqot uchun muhim bo'lmagan tassurot va ta'sirlardan holi bo'lishni, narsa va hodisalarning o'zaro aloqasini, undagi o'zgarishlarni xolisona ifodalashni ta'minlaydi.

**Aniqlik** tadqiqotning barcha muajalari uchun tegishlidir: pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatish va qayd etish; fikrlar tahlili va umumlashmasi; turli manbalaridan olingan ilmiy axborotlardan foydalanish va b.

**Tanqidiylik** boshlang'ich ma'lumotlarni sog'lom baholashni tajriba natijalarining haqqoniyligini ta'minlash bilan farazlar va nazariyalarni qurishdagi shubhasiz uzluksiz va qonuniy darajasi bilan, agar ular yangi faktlarga zid kelib, dalilarni to'g'ri va chuqur tushuntira oladigan kontsepsiya topilsa, ulardan voz kechish qobiliyati qobiliyati bilantavsiflanadi.

**Muayyanlik va izchillik** qabul qilingan atamalarning bir xilligida, tadqiqot mantiqiga amal qilishda, shart-sharoitlarni hisobga olishda, ilmiy apparat tushunchalarining bog'liqligida namoyon bo'ladi.

**Tizimlilik** o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni biror belgilari asosida tasniflashga intilishda, tasavvurlar, tushunchalar va qonuniy aloqalarni o'rnatish, kontseptsiyalarni, naziryalarni shakllantirishda yuzaga chiqadi.

Xullas, ilmiy tafakkur tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi belgilashda ob'ektivlikni, muayyanlikni, aniqlikni nozik, ehtiyotkorona chog'ishtirishni, haqiqatni bilish yo'lining to'g'riligini, tajriba natijalarini, nazariy xulosalarni tanqidiy tekshirib ko'rishni va albatta, tizimlikni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, tadqiqotchining metodologik madaniyatini shakllantirishda refleksiya – xususiy ilmiy faoliyatini tahlil qilish ko'nikmasi asosiy o'rin tutar ekan.

Yuqorida ta'kidlanganlar turli soha vakillarining ilmiy tafakkuriga tegishlidir. Shu bilan birga pedagog – tadqiqotchi o'ziga xos ba'zi bir xususiyatlar bilan farqlanib turadi.

**Birinchidan**, u etarlicha peyogogik tajribaga ega bo'lishi, kamida besh-o'n yillik pedagogik jarayonning "ichida qaynashi" kerak. Shundagina, bu jarayonning siru sinoatlaridan voqif bo'ladi, uning nozik, ko'z ilg'amas joylarini topadi, muammoni anglay oladi, mavjud ziddiyatlarni shakllantiradi va yangi echimini qidira oladi.

**Ikkinchidan**, pedagogik muammoning dolzarbligi respondentlar fikriga tayangan holda aniqlanadi. Bu juda muhim bosqich hisoblanadi.

Ma'lumki shogirdni tayyorlashda kuchli shaxslar ko'magiga tayanish bizda qadimdan sinalgan usul. Ustoz o'zining zaif tomonlarini shogirdiga oshkor qilmagan holda o'zidan-da kuchliroq ustoz huzuriga yuborishni lozim topgan. Misol uchun Mashrab hurfikrlilikda tashna edi. Birinchi ustoz Mulla Bozor Oxund (XVII asr) Mashrabni o'zidan kuchliroq bo'lgan Hidoyatulloq Ofoq Hojaga jo'natadi. Sababi Bozor Oxund shogirdining fikrlashini bo'lib qo'yishi, o'zi bilmagan holda unga zarar etkazishi mumkin edi. Natijada Mashrab Ofoq Hoja huzurida vally bo'lib etishadi.

Pedagogik tadqiqotchi ob'ektlar (o'qituvchi, tarbiyachi, o'quvchi talabalar va boshqalar) bilan ish ko'radi va pedagogik tajriba-sinov o'tkazishda undan ehtiyotkorlik talab etiladi, ayniqsa, o'quvchi-yoshlar qalbia, dunyoqarashiga, erkin fikrlashiga sinov davomida putur etmasligi lozim.



Kullas, pedagogik voqelikni to'g'ri aks ettirishda tadqiqotchi sog'lom fikr sohibi bo'lish uchun metodologik madaniyatni egallashi hart ekan.<sup>1</sup>

Ta'kidlash joizki, ayrim tadqiqotchilar pedagogik tadqiqotlarning asoslarini belgilashda pedagogikaning metodologik muammolarini umumnazariy muammolar bilan almashtirib, "*statistik metodologiya*", "*pedagogik metodologiya*" kabi ifodalarda noto'g'ri talqin qilayotgan holatlarga duch kelinmoqda. Sababi falsafa fanigina metodologik baza hisoblanabi, uning barcha bo'limlari, tushunchalar, qonuniyatlari, qonunlari metodologik ahamiyat kasb etishi e'tirof qilingan. Shu bilan birgalikda filosofiyani metodologiya bilan to'liq almashtirish ham qaramaydi: metodologiya – bu boshdan - oxir falsofiya emas, balki uning asosiy funktsiyalarini, ayrim jihatlarini o'zida aks ettiradi, xolos.

Shunday qilib, hozirgi kunda pedagogika fanining metodologik asosi filosofiyadir. Filosofiyaning bosh masalasi esa ob'ektiv borliq va inson o'rtasidagi o'zaro aloqani oydinlashtirish hisoblanadi. Olam bilan inson o'zaro mavjudligini tadqiq qilish insonning cheksiz faoliyatini va xarakterini o'rganishdir. Individdning shaxs darajasida namoyon bo'lishida tarbiyaning etakchi mavkeini qadimdan faylasuflar tan olib boshlagan va inson tarbiyasi muammosi falsafaning asosiy masalalari qatoriga kiritilgan. Shu tariqa falsafiy ta'limotlar tarkibida pedagogik fikr va g'oyalar vujudga kela boshlagan va yillar davomida rivojlanib borgan, natijada pedagogika mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan. Demak, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, pedagogika faning metodologiyasini jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ifoda etuvchi zamonaviy falsofiya, uning bilish nazariyasi tashkil etadi.<sup>2</sup>

## 5. Pedagogika fanining asosiy tushunchalari va tarmoqlari

Pedagogika fani ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'z quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarishini o'rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qisimlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, ta'lim mazmuni va tarbiyaning kelgusidagi ehtiyoqlari, yo'llari va usullarini qo'rsatib boradi. Pedagogika fanida bir-

1. N.Saidahmedov. Zamonaviylik, metodologiya, pedagogika // UZL.UKSIZ TALIM, 2004 yil 2-son, 17-26-betlar.

2. N.Saidahmedov. Pedagogika fani metodologiyasi xususida // Xalq ta'limi, 2000 yil 1-soni, 34-37-betlar.

biri bilan bog'langan asosiy tushunchalar mavjud bo'lib, ularning ayrimlarini sharhlaymiz:

**Tarbiya** – o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va ma'suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oxirigacha oilada, maktabda, kasb-hunar kollejida, oliy ta'lim muassasasida va jamoatchilik ta'sirida shakllanib boradigan jarayondir.

**Bilim** – bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi, ularning ichki ziddiyatlaridan kelib chiqqan bog'liqlikdir. U qonuniyat deb ham yuritiladi. Ya'ni **bilim insoniyat tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda zarur bo'lgan fan asoslarini qonunlar va tushunchalarni o'zlashtirish natijasidir.**

Bilimni hayotda ko'p samara beradigan qilib qo'llay olish uchun bilim bilan birga ko'nikma va malaka hosil qilish lozim. Bilim bahsda kerak bo'lsa, ko'nikma va malaka mehnat faoliyatida, dunyoni o'zlashtirishda zarur.

**Ko'nikma** – malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va o'quvchi – talabalarda ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar yig'indisidir.

**Malaka** – o'quvchi-talabalarining bilim egallash va mehnat jarayonidagi harakatini (yoki harakatlar majmuasini) muayyan sharoitda maqsadga muvofiq shakllantirish va shu orqali o'qishda va mehnat faoliyatida ijobiy natijalarga erishib, ongli bajarishga tayyor bo'lishdir.

Umuman, iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali **malakaga** aylanadi.

**Mahorat** – turli malakalardan ishonchli, ijodiy foydalanish hamda kasbiy malakalar rivojlanishining yuqori darajasi va kasbiy ta'limning mutloq maqsadidir. Mahorat – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning engilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror maromidir.

**Odob - axloq** – shaxsning o'ziga va dunyoga nisbatan munosabatlaridagi xatti-harakatlarining belgilangan, aniqlangan usuli bo'lib, sabab tasavvurlar va qarashlarni o'z ichiga oladi, ya'ni shaxs shakllanadigan manba hisoblanadi.

**Shaxs** – jamiyat a'zosi sifatida, o'z – o'zining anglashi va tafakkur faoliyatining ob'ektivligi, muloqotda hamda kamolotga etishida nasl (irsiyat) biologik, ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq amalga

o'shiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.

**Shaxsning axloqiy sifatlari** – shaxsning aqliy jihatdan kamolotga etishuvi uning aqliy, zehniy sifatlari, fazilatlari orqali namoyon bo'ladi: bilag'onlik, ob'ektivlik, fikrlovchilik, qobiliyatlilik va h.k. hisoblanadi.

**Shaxs shakllanishi** – inson bioijtimoiy mavjud bo'lganligi tufayli, biologik rivoji bilan bir qatorda u ijtimoiy rivojlanib ham boradi va kamolotning ma'lum bir bosqichida shaxsga aylanadi.

**Ijtimoiy taraqqiyot** – tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobiy ta'sir etish, ya'ni shaxsning shakllanish jarayoni. Shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya etakchi o'rinni egallaydi.

**Pedagogik tamoyil** (printsipalar) – o'qituvchi va o'quvchi-talaba o'rtasidagi munosabat orqali beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni, shuningdek, o'quv qurollari va tarbiyalanuvchilarning ruhiy xususiyatlari o'rtasidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqqan qonuniyatga amal qilish.

**Shaxsning har tomonlama kamolga etishi** – ma'lum bir tarixiy shart-sharoitlardagi individ qobiliyati va iqtidori, uning bioijtimoiy mohiyatlarini tashkil qiladigan hamma kuchlarni to'liq rivojlantirishdan iborat.

**Pedagogik muhit** – ta'lim –tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda tuzilgan shaxslararo (o'qituvchi – o'quvchi – talabalar o'rtasidagi) munosabatlar majmui.

**Ijtimoiy muhit** – kishi shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlar majmui. Ijtimoiy tafakkur, turmush tarzi va shaxslararo, guruhlararo hamda millat va xalqaro munosabatlarning o'zaro muvofiq kelishi va bir-birini boyitish.

**Ichki muhit** – shaxsning o'ziga xos hayotiy faoliyati, xarakterning o'ziga xosligi, hayotiy tajriba va irsiy tafakkur ko'nikmalari majmui, odatdagi ruhiy holatlarda o'zini namoyon etadigan ta'sirchanlik va jozibachilikka munosabatlarning o'zaro bir-biriga muvofiq kelishi, bir-birini o'ldirishi va boyitishi.

**Irsiylik** – shaxsning o'ziga xosligini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik, tashkiliy jihatlar, ota-ona tomonidan irsiy birliklar orqali o'tadigan birliklar.

**O'z-o'zini anglash** – shaxsning o'ziga va o'z faoliyatiga bir jamoa tomonidan barcha jamiyat nuqtai nazaridan baho bera olish.

**Faoliyat** – qandaydir shaxsiy, guruhiy, milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsad sari yo'naltirilgan harakat.

**Ta'lim-tarbiyaning insoniyligi** – pedagogik jarayonni, ya'ni ta'lim-tarbiya beruvchi bilan o'quvchi-talaba orasidagi pedagogik munosabatlar oqimini o'ta insoniy (o'zaro izzat-hurmat va muhabbat) ruhida amalga oshirish.

**Ta'limni demokratlashtirish** – muayyan jamiyat va konkret shaxs ehtiyoji va imkoniyatidan kelib chiqib, ma'lum bilimlar turi va hajmini erkin holda tanlab olish.

**Tizim** – (*yunoncha "sistema"*) so'zidan olingan bo'lib, bo'laklardan hosil bo'lgan, birikish ma'nosini anglatadi. Ya'ni yaxlit, butunlikda faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro bog'liq elementlarning yig'indisidir.

Pedagogika fani uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, hozirgi vaqtda ilmiy bilimlarning yaxshi shakllangan, katta nazariy va amaliy materiallarni o'z ichiga olgan tarmog'iga aylandi va o'zining ilmiy-nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada bularning barchasi pedagogika fanining alohida tarmoqlari vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Jumladan, **pedagogika tarixi** mustaqil tarmoq sifatida, pedagogika fanining tarixan rivojlanishini o'zida aks ettirdi. Bunda o'tmishdagi ilg'or pedagogik g'oyalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, ularning bugungi kundagi ahamiyati, mutafakkirlarning pedagogik merosidan foydalanish zaruriyati haqida fikr yuritiladi.

**Pedagogika tarixi** pedagogik ta'limotlar tarixi va tarbiyaning rivojlanish masalalarini ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etib, pedagogik g'oyalarning salbiy pedagogik g'oyalarga qarshi kurashi tarixini, xukmron tabaqalarning demokratiyaga qarshi siyosatini ochib tashlaydi, ilg'or pedagogik g'oyalar, hur fikrlar, ta'lim qonuniyatlarining ayrim olingan tarixiy davrdagi rivojlanish tamoyillarini tahlil qiladi, muhim umumiy xulosalar chiqaradi va bugungi kun uchun dolzarb muammolarni o'rtaga tashlaydi.

Tarixiylik tamoyili har qanday fan rivojlanishning zarur tamoyili hisoblanadi. Zero, o'tmishni hozirgi davr bilan qiyoslash faqat xozirgi xodisalarning asosiy rivojlanish bosqichlarini yaxshi kuzatib borishga yoki o'tmishning bebaho tajribasi hamda erishilgan yutuqlardan foydalanishga yordam berib qolmay, shu bilan birga, bu sohada xatolarga yo'l qo'yishdan saqlaydi va kelajakka yo'naltirilgan amaliy takliflar, maqsadli izlanishlarni amalga oshirishga ko'p darajada asos


bo'ladi. Jamiyat hayotini qayta qurish, o'sib kelayotgan yosh avlodni, shuningdek, hamma fuqarolarni tarbiyalashni kuchaytirishni talab etadi.

Pedagogika fanlari tizimida tarbiyalanuvchilarning yoshlariga va kasbiy omilkorligini shakllantirishga qaratilgan **maktabgacha ta'lim pedagogikasi**, **maktab pedagogikasi**, **yoshlar pedagogikasi**, **katta yoshdagilar pedagogikasi**, **kasb-hunar ta'limi pedagogikasi**, **ishlab chiqarish pedagogikasi**, **oliy maktab pedagogikasi**, **menejment pedagogikasi**, **tibbiyot pedagogikasi**, **harbiy pedagogika**, **iqtisodiy pedagogika**, **zamonaviy pedagogik texnologiyalar va boshqa tarmoq pedagogikalari vujudga keldi**. Bu tarmoq pedagogikalari maktabgacha, umumiy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, kasb-hunar kolejlarida, oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlarini o'rganadi.

Bulardan tashqari **defektologiya** deb ataluvchi maxsus pedagogika: **surdopedagogika** (kar va soqov), **tiflopedagogika** (ko'zi ojiz); **oligofrenopedagogika** (aqliy rivojlanishdan orqali qolgan); **logopediya** (nutqi yaxshi rivojlanmagan) tarbiyalanuvchilarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan shug'ullanadi.

Pedagogika fanlari tizimining muhim tarmog'i sifatida aniq fanlarni o'qitish va o'rgatishning qonuniyatlarini o'rganuvchi **metodika**, ya'ni **uslubiyat** fanining xizmatlari beqiyosdir. Butun pedagogik jarayonni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini qo'rsatib beruvchi (**metodika**, ya'ni **uslubiyat**), fani ham, o'z navbatida, maktabgacha ta'lim uslubiyati (metodikasi), umumta'lim uslubiyati, kasb-hunar ta'limi uslubiyati, maxsus ta'lim uslubiyati, oliy ta'lim uslubiyati, malaka oshirish uslubiyati va boshqa fan uslubiyati tarmoqlaridan iborat. Bu pedagogik fanlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini taqazo etadi, bir-birini o'ldiradi. (18-shakl).

## Pedagogikaning asosiy tarmoqlari



## 6. PEDAGOGIKA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI VA ILMIY-TADQIQOT METODLARI

Pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning nsonga ta'sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat ivojlanishining o'ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta'sirini o'rganadi. Shu bilan birga, pedagogika ukuv nuassasasi tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko'pgina masalalarni hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o'quv muassasasi, oila va amoatchilikning o'zaro hamkorlikda ish olib borishiga yordam beradi.

«Pedagogika» fani tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o'rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog'liqdir. «Falsafa» fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tashkil etadigan, ya'ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Bular jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy xodisalar orasidagi o'zaro aloqalar; dunyoqarashni, ahloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan gneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

**Etika** falsafaning ahloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Ularni xal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

**Estetika** (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go'zallikni xis qila olish, tushunishga o'rganish vositalari va yo'llarini belgilab beradi.

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiylikini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati, uning mafkuraviy yo'nalishga ega ekanligini ta'kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan ob'ektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o'rganadi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi.

**Pedagogika psixologiya va fiziologiya** bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiyaning oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o'ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek, sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak, qon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi.

Psixologik hodisalarning fiziologik asoslarini bilish pedagogika uchun tarbiya va ta'limning ba'zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning ko'pgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

**Psixologiya** pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o'sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Keyingi vaqtlarda pedagogika boshqa yangi rivojlanayotgan fanlar bilan, jumladan, murakkab dinamik tizimlarni rejali boshqarish haqidagi fan bo'lgan kibernetika bilan mustahkam aloqada rivojlanmoqda. Bularning barchasi pedagogika o'zining predmeti va tadqiqot sohasiga ega bo'lib, boshqa bir qator fanlar bilan juda mustahkam bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi mustaqillik sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarni, umuminsoniy ijobiy xislatlarni rivojlantirish O'zbekiston hukumatining qarorlarida mustaqil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida, nutqlarida o'z aksini, tasdig'ini topgan.


O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'z yo'li, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi keksa avlod oldida turmagan yangi masala va muammolarni echish uchun zarur bo'ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.



O'zbekistonda milliy istiqlol mafkurasi asta-sekin shakllanib borayapti. Pedagogika ilmidagi tushunchalar ta'riflar milliy istiqlol mafkurasiga mos umuminsoniylik ruhida tushuntirilmog'i maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Albatta ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. Yana bir tomondan ta'lim nazariyasini, ta'lim - tarbiya mazmunini, shaklini va uslublarining asosiy jihatlari Sharqda ishlab chiqilib, Evropa orqali o'zgarib, rivojlanib yana Sharqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini hisobga olinsa, quyidagi tushunchalarda xususiy milliylikdan ko'ra, umuminsoniylik jihatlarning ko'pligi ko'zga tashlanib turadi.

19-shakl



Pedagogika fani o'z mazmunini boyitishda yangilashda mavjud bo'lgan pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari qanchalik to'g'ri qo'llansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Lekin ilmiy

tadqiqot metodlarining aniq chegaralangan tizimi hozirgacha fanda yaratilgan emas. Pedagog pedagogik jarayonda o'z auditoriyasi tarbiyalanuvchilari xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning psixologiyasini chuqur o'rganishda bir qator metodlarni qo'llashi mumkin. Chunki pedagogning asosiy maqsadi dars jarayonini tarbiyaviy ta'sirini oshirish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi pedagogik ilmiy tekshirish metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. **Adabiyotlarni o'rganish metodi**
2. **Pedagogik kuzatish metodi.**
3. **Suhbat metodi (yakka tartibda, guruh bilan )**
4. **Pedagogik so'rash metodi.**
5. **Test sinovlari metodi.**
6. **Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.**
7. **Eksperiment-tajriba-sinov metodi.**
8. **Statistika ma'lumotlarini taxlil qilish metodi.**
9. **Matematika va kibernetika metodi.**
10. **Modellashtirish metodi.**

Ta'lim metodlarini tanlash bilan bir katorda o'qituvchi darsdagi talabalarni yosh va individual xarakter xususiyatlarini o'rganishi hamda tahlil qilishi shart.

**Adabiyotlarni o'rganish metodi** – tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogika psixologiya, madaniyat, iqtisod, siyosatga doir adabiyotlar va dissertatsiyalar o'rganishda qo'llaniladi.

**Pedagogik kuzatish** – odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarining fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

**Suhbat metodi** – so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qo'llaniladi.

Suhbat metodi – ta'lim muassasasi o'qituvchilari va talabalar

amoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli artibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit asmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy o'rash nazariyasi va praktikasi intervyu tashkil etishning ko'p metodlari navjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;
- sinash va h.k.

**Pedagogik so'rash metodi** – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish arayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning nantiqiy o'ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan samchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy shakldagi javobni «ha», «yo'q») ham taqozo etishi mumkin.

**Test sinovlar metodi**- bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish nurakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchiligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda test savollarining ma'lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

**Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi** – bunda talabalarning umumiy miqdori, uning o'sishi yoki kamayish sabablari tavsifi, talabalarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasiga, yoki kursidan qolishning oldini olish, Rag'batlantirish va jazolash choralari turlariga, ta'lim muassasasining moddiy bazasiga e'tibor beriladi.

**Eksperiment-tajriba-sinov metodi** – ushbu tajriba asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqu jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.


**Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi**-ta'lim sohasiga, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, o'quv binosi qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika metodi orqali aniqlanadi.

**Matematika va kibernetika metodlari**- o'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta'lim va uni

mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish differentsial va individual ta'lim berish, ta'lim-muassasasi hisobotini mashinalar yordamida tuzish kabi jarayonlardir.

Bu kabi metodlardan foydalanib ta'lim va tarbiya ishlarini olib borish faqatgina pedagog uchun emas, iqtisodiyot jabxalarida faoliyat yuritayotgan boshqaruvchi xodimlar, oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ota-onalar uchun ham, jamoa bilan ishlaydigan mas'uliyatli shaxs uchun xam zaruriy shart bo'lgan metodlardan biridir. Zero, inson tarbiyasidek murakkab jarayonga hech qachon e'tiborsiz bo'lmaslik zarur.

20-shakl



## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Pedagogika – yunoncha “**pedagogos**” atamasidan kelib chiqqan bo'lib, “**bola etaklovchi**” degan ma'noni bildiradi. Qadimgi Yunonistonda quldorlarning farzandlarini o'quv muassasasiga olib boradiganlarni “pedagogos” deb atashagan. Keyinchalik bu atamaning ma'nosi bir muncha o'zgaradi. Maxsus tayyorgarlik ko'rgan va tarbiya bilan shug'ullangan shaxslar “pedagog” deb atala boshlagan. Ko'p

aqlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat o'sib kelayotgan yosh vlodning tarbiyasini o'rganadi, deb qaralgan. Ammo xayot amaliyoti aqat tarbiyasigina emas, balki kattalar tarbiyasiga xam taalluqli kanligini ko'rsatdi. Shuning uchun ham hozirda pedagogikani yosh vlodni va katta yoshdagilarni ham o'qitish va tayyorlash, ularga na'lumot berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan, deb belgilash odatga ylandi.

Pedagogika mustaqil fan sifatida shakllanguncha uzoq taraqqiyot ro'lini bosib o'tib, xozirgi vaqtda ilmiy bilimlarni yaxshi shakllangan, tatta nazariy va amaliy materiallarini o'z ichiga olgan tarmog'iga ylandi. Bularning barchasi pedagogikaning alohida tarmoqlarga yjalishiga saba bo'ldi.

**Milliy pedagogika** – muayyan davlat konstitutsiyasi, ta'lim o'g'risidagi qonunlari hamda istiqbolli rivojlanish dasturi, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlari, xalqning milliy–ma'rifiy merosi va ta'lim-tarbiya soxasida erishilgan jahon miqyosidagi yutuqlar asosisida shakllangan hamda millatning muayyan tarixiy rivojlanish jarayonidagi talablariga javob beruvchi ta'lim-tarbiya nazariyasi, usul va usullarini ifodalovchi ilm-fan majmuidir.

**Pedagogikaning asosiy tushunchalari** – pedagogika fani ham boshqa faoliyat soxalari singari o'zining maxsus tushunchalariga ega, ilmiy tilda uni pedagogik **kategoriyalar** deyiladi.

**Pedagogik faoliyat** – jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan extiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va milliy fazilatlarini shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya'ni yoshlarni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat turi.

**Pedagogik jarayon** – o'qituvchi bilan o'quvchi-talaba, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi orasidagi bilim berish va bilim olish, o'rgatish-o'rganish, tarbiyalash maylida kechadigan munosabatlar tizimi.

**Metod** – maqsadga etishishda muayyan to'siqni engib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbir-choralar yoki usullar majmuidir.

**Metodika** – maqsadlarga etishishda qo'llaniladigan metodlar tizimidir.

**Metodik asos** – shaxs maqsad sari qilgan harakatida unga tamoyil bo'lib, xizmat qiladigan maqsad ko'rsatkichlari bilan shu harakat davomida amal qilishi shart bo'lgan qonuniyatlar majmuidir.

## O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Pedagogika fanining predmeti va ob'ektini izohlab bering?
2. Pedagogika fanining maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari (kategoriyalari)ni tushuntirib bering.
3. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan Sharq mutafakkirlarining qaysi asarlarini bilasiz?
4. Pedagogik metodologiya nima?
5. Pedagogika tarmoqlari qaysilar?
6. Milliy pedagogikani yaratish zaruriyati nimada?
7. Mafkuraviy tarbiya nima?

## MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Pedagogikaning inson va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
2. Pedagogik fanlar majmui va uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
3. Pedagogika faning metodologik asoslari.
4. Milliy pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari va asosiy yo'nalishlari.
5. Iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda pedagogika faning o'rni.
6. Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkuraning pedagogik asoslari.

## TEST TOPSHIRIQLARI

1. "Pedagogika" atamasining aynan ma'nosi nima?
  - a) grekcha, ta'lim-tarbiya jarayoni;
  - b) ruscha, pedagog-o'qituvchi;
  - c) yunoncha "pedagogos" bola etaklovchi;
  - d) o'zbekcha, bolashunoslik;
  - e) yunoncha "donishmandlar suxbati".
2. Mutafakkir pedagoglardan qaysi biri ta'lim va tarbiyani aniq ta'riflab bergan
  - a) Abu Nasr Forobiy;
  - b) Alisher Navoiy;
  - c) Yan Amos Komenskiy;
  - d) Abdulla Avloniy;
  - e) Behbudiy.

**3. Qanday shaxslarni pedagog deb atashgan?**

- a) ota-onani;
- b) maxsus tayyorlangan o'qimishli donishmandlarni;
- c) tarbiyachini;
- d) bilim beruvchini;
- e) ta'lim-tarbiyaga rahbarlik qiluvchini;

**4. Pedagogikani fan sifatida qaysi mutaffakkir aniq va ushunarli qilib ta'riflagan?**

- a) Al-Xorazmiy;
- b) Abu Rayhon Beruniy;
- c) Yan Amos Komenskiy;
- d) Abdulla Avloniy;
- e) A.C.Makorenko.

**5. "Maktab" atamasining ma'nosini to'g'ri ta'rifini toping.**

- a) "maktab" yunoncha so'z bo'lib, "bo'sh vaqt, mehnatdan dam olish";
- b) "donishmandlar" bilan suhbat;
- c) ta'lim – tarbiya maskani;
- d) muloqot;
- e) o'qish-o'rgatish.

**6. "Al-hosil, bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo xalokat, yo saodat-yo falokat masalasidir...", degan so'zlarning muallifi kim?**

- a) Fitrat;
- b) Bexbudiy;
- c) Abdulla Avloniy;
- d) Sadriddin Ayniy;
- e) Abdulla Qodiriy

**7. Tarbiya qaysi faoliyat maxsuli xisoblanadi?**

- a) mehnat;
- b) o'qish;
- c) ko'nikma;
- d) malaka;
- e) tajriba;

**8. "Ta'lim va tarbiya egizakdir" iborasining muallifi kim?**

- a) Rudakiy;
- b) Behbudiy;

- c) Abdurahmon Jomiy;
- d) Alisher Navoiy;
- e) Xisrav Dehlaviy;

**9. Pedagogika fanining maxsus tarmog'i qanday ataladi?**

- a) Defektologiya;
- b) Tiflopedagogika;
- c) Oligofrenopedagogika;
- d) Surdopedagogika;
- e) A,V,S,D.

**10. Qaysi fan pedagogikaning metodologik asosi hisoblanadi?**

- a) psixologiya;
- b) falsafa;
- c) sotsiologiya;
- d) tarix;
- e) pedagogika tarxi;

**11. Pedagogika fanlari tarmoqlarida birinchi o'rinda qaysi pedagogika tarmog'i turadi?**

- a) umumiy pedagogika;
- b) maktabgacha ta'lim pedagogikasi;
- c) maxsus pedagogika;
- d) kasb-xunar ta'limi pedagogikasi;
- e) oliy maktab (ta'lim) pedagogikasi.

**12. Hozirgi kunda pedagogikaning qaysi ilmiy – tadqiqot metodlari etakchi hisoblanadi?**

- a) Pedagogik kuzatish va so'rash metodlari;
- b) Test sinovlari va ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodlari;
- c) Eksperiment – tajriba – sinov metodlari;
- d) Matematika – kibernetika metodlari;
- e) a, b, s, d.

**13. Jamiyat mafkurasi nima?**

- a) Inson manfaatlarini ifoda etuvchi, bexatar, tinch-totuv, farovon turmushga yo'llovchi manba;
- b) Muqaddas an'analarimizni anglash;



- c) Xilma –xil fikrlar va g'oyalarni bir bayroq ostiga birlashtirish;
- d) Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- e) Fikrlar xilma-xilligi va hurfirklik.

**14. Milliy mafkura vositasida nimaga erishiladi?**

- a) el-yurt birlashadi;
- b) iqtisodiyot rivojiga erishiladi;
- c) ma'rifatga erishiladi;
- d) barqarorlikka erishiladi;
- e) a,v,s,d.

**15. Komil inson g'oyasi nima?**

a) komil inson g'oyasi – odamzotga xos yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni ezgulikka undaydigan olijanob g'oya;

b) komillik – mehr – muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi asl insoniy xislat va fazilatlarining majmuidir;

c) komil inson g'oyasi azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'anaviyatining uzviy qismi bo'lib kelgan;

d) komil inson – qullik, mutelik, boqimandalikdan butunlay xolos bo'lgan, o'z maslagi, vatani, xalqi manfaatlariga yot, zarali g'oyalarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydigan, ogoh va faol insondir;

- e) a, v, s, d.

**INTELEKTUAL TRENING**

**1. Pedagogika fanining maqsad va vazifalari nimalardan iboratligini izohlab bering.**

№	Pedagogika fanining predmeti	Pedagogika fanining maqsad va vazifalari
1	2	3

## 2. Tarbiya nima?

<b>№</b>	<b>Tarbiya tushunchasini izohi</b>
<b>1</b>	<b>2</b>

## 3. Ta'lim nima?

### Ta'lim tushunchasini izoxi

<b>№</b>	<b>Ta'lim tushunchasini izoxi</b>
<b>1</b>	<b>2</b>

## 4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushuntirib bering?

<b>№</b>	<b>Falsafa</b>	<b>Psixologiya</b>	<b>Sotsiologiya</b>	<b>Fiziologiya</b>	<b>Boshqa fanlar aloqadorligi</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>

## 5. "Metod", "Metodika" va "metodologik asos" tushunchalarini izohlab bering

<b>№</b>	<b>Metod</b>	<b>Metodika</b>	<b>Metodologik asos</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>


**6. “Metodologiya” nima?**

<b>№</b>	<b>Metodologiya tushunchasi</b>
<b>1</b>	<b>2</b>

**7. Pedagogikaning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?**

<b>№</b>	<b>Asosiy pedagogik tushunchalar</b>
<b>1</b>	<b>2</b>

**8. Ta’lim-tarbiya jarayoni va pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlarini qo’llashning ahamiyatini tushuntirib bering**

<b>№</b>	<b>Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari</b>
<b>1</b>	<b>2</b>

**9. Pedagogika fanining tarmoqlarini tushuntirib bering**

<b>№</b>	<b>Pedagogika faning tarmoqlari</b>
<b>1</b>	<b>2</b>

**10. Ta'lim va tarbiyaning birligi deganda nimani tushunasiz?**

<b>№</b>	<b>Ta'lim</b>	<b>Tarbiya</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>

**11. Komil inson deganda nimani tushunasiz?**


<b>№</b>	<b>Komil inson tushunchasi</b>
<b>1</b>	<b>2</b>

**12. Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkurani tarbiyalashning pedagogik asoslarini izohlab bering**

<b>№</b>	<b>Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkuraning mazmun-mohiyati</b>	<b>Mafkuraviy tarbiya</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.I. –T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni-xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. –T.: O'zbekiston, 1998
3. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.
4. Ayubjonov A. Iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda pedagogika fanining o'rni. Iqtisodiyot va ta'lim, 2002 yil 3-son 126-129-betlar.
5. Voinova M.G., Axrarova G.P., Pedagogika.Uchebnoe posobie. – T.: TDYuI, 2006.
6. G'aybullaev N.R., Yodgorov R, Mamatqulova R, Pedagogika. O'quv qo'llanma. –T.: O'ZMU, 2005
7. Ziyomuxamedov B. Pedagogika. –T.: “Turon-Iqbol”, 2006.
8. Ziyomuxamedov B. Komillikka eltuvchi kitob. –T.: “Turon-iqbol”, 2006
9. Kadjaspirova G.M.. Pedagogika. Uchebnik. –Moskva, “Gordarika”, 2004
10. Mo'llajonov M. Yangicha tafakkur va milliy pedagogikaning shakllanishi// Iqtisodiyotva ta'lim, 2000 yil 1-son.
11. Ochilova G.O., Musaxonova G.O. Pedagogika. –T.:TDIU, 2005
12. Ismoilova Z.K., Shoyusupova A.A. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. –T.: TIMI, 2005.
13. Slastenin V.A., Isaev I.F., Mixenko A.I., Shiyanov a E.N. Pedagogika. –Moskva, “Shkolnaya pressa”, 2004
14. Xo'jaev N., Ismoilova U. Ta'lim va tarbiyada pedagogika fanining roli. // Iqtisod va ta'lim, 2003 yil 3-son, 149-bet.
15. [www.inter-pedagogika.ru](http://www.inter-pedagogika.ru)



17.000c